

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLGIYA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

RAHMONOB ABDURASUL ABRUMALIK O'G'LI

**QO'SHMA KORXONALAR VA ULARNING ICHKI BOZORNI
RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI**

Mutaxassislik: 5340100 – “Iqtisodiyot”

Bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar:

I.f.n. dotsent I.Sobirov

Namangan-2015 yil

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
1-bob.	O'zbekiston Respublikasiga chet el sarmoyasini jalb qilishda qo'shma korxonalarining roli va uni tashkil etishning huquqiy asoslari.....	7
1.1-§.	O'zbekiston Respublikasiga chet el sarmoyasini jalb qilishda qo'shma korxonalarining roli.....	7
1.2-§.	Qo'shma korxonalar tashkil etishning huquqiy asoslari.....	12
2-bob.	Milliy iqtisodiyotga chet el sarmoyalarini jalb etish va qo'shma korxonalar tashkil qilish holati tahlili.....	23
2.1-§.	Milliy iqtisodiyotga chet el sarmoyalarini jalb etishning rivojlanish bosqichlari.....	23
2.2-§.	Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalarining iqtisodiy tahlili	31
2.3-§.	Marketing faoliyati orqali qo'shma korxonalar tashkil etishni rivojlantirish.....	36
3-bob.	O'zbekistonda qo'shma korxonalar tashkil etishning samaradorligi va ular tanlagan strategiyasiga erishishining asosiy yo'nalishlari.....	43
3.1-§.	Qo'shma korxonalar tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari.....	43
3.2-§.	Qo'shma korxonalar faoliyati samaradorligi tahlili.....	50
3.3-§.	Qo'shma korxonalar tanlagan strategiyasiga erishishining asosiy yo'nalishlari.....	55
	Xulosa va takliflar.....	61
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	65

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitoblarida ta'kidlab utilganidek «iqtisodiyot tarkibini qayta qurilishi faol investitsiya siyosatini o'tkazish bilan chambarchas bog'liqdir. Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish - islohotlar strategiyasining juda muhim shartidir. Iqtisodiy tuzilishi qayta qurilishining belgilangan yo'nalishlari, eksport imkoniyatining kengaytirishiga baquvvat investitsiya siyosatini o'tkazish yo'li bilangina erishish mumkin. Buning uchun o'z sarmoyalarimizni ham, tashqi kreditlarni ham, bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarurdir»¹.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va jahon iqtisodiy maydoniga kirish borasida faol ravishda o'zining tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning barcha shakllarini rivojlantirish taqsimlashning ob'ektiv qonuniyatlardan, xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatdor iqtisodiy aloqalariyu: kengaytirish va ularni Yangi bosqichga olib chiqish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Hozirgi kunda halq xo'jaligining muvozanati, undagi turli tarmoqlarning bir-biriga nisbatan o'rni eksport va import xajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. O'zbekiston hukumati respublika eksport xajmini oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy strukturani rivojlantirish yo'lida bevosita ishlarni amalga oshirmoqda. Hukumat chet el sarmoyalarini jalb etish uchun kafillikni o'z bo'yniga olmoqda, kezi kelganda esa eksport uchun mahsulot yoki xizmat ko'rsatuvchilarga soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilmoqda.

Bunday imtiyoz va sharoitlar o'z-o'zidan ma'lumki, xorijiy sarmoyadorlarning O'zbekistonda ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatishlarida muhim ahamiyatga ega.

¹ Каримов И.А. Узбекистон иктисодий ислохотларни чуқурлаштириш йулида. - Т.: Узбекистон, 1995. - 118 бет.

O'zbekistonning hozirgi vaqtda Dune iqtisodiyotiga kirib borishida ishlab chiqarishni internatsionallashtirish jarayoni juda muhimdir.

Ishlab chiqarishni internatsionallashtirish - Dune ishlab chiqarish jarayonini hamma bosqichlarida ma'lum darajada birlashishga erishishni ya'ni, birgalikda faoliyat ko'rsatishni ko'zda tutadi. Hozirgi davrda birgalikda faoliyat ko'rsatishining zamonaviy ko'rinishdagi shakllaridan biri - qo'shma korxonalaridir.

Qo'shma korxonalar - ikki yoki undan ortiq davlatlarning, ikki yoki undan ortiq mulkdorlari o'z kapitallarini, tajribalarini, bilimlarini birlashtirgan holda tashkil etilgan korxonalaridir. Ayni paytda Respublikamiz o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishning istiqbolli yo'llaridan biri ham - qo'shma korxonalaridir.

Shundan kelib chiqqan holda, biz qo'shma korxonalar faoliyatini, maqsadini va o'z maqsadiga erishishida tanlagan strategiyasini tahlil etishni hozirgi vaqtda respublikamiz uchun juda dolzarb deb hisoblaymiz. Fikrimizning dalili sifatida qo'shma korxonalarni hududlar, tarmoqlar bo'yicha yo'naltirilishidagi tengsizliklar, ularni ish faoliyati jarayonida vujudga keladigan muammolari kabi holatlarni keltirishimiz mumkin. Bo'lar esa, mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ilmiy ishning maqsadi O'zbekiston Respublikasiga chet el sarmoyasini jalb qilishda qo'shma korxonalarining rolini va ularning ichki bozorni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Yuqorida keltirilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- O'zbekiston Respublikasip chet el sarmoyasini jalb qilishda qo'shma korxonalarining roli aniqlsh;
- qo'shma korxonalar tashkil etishning huquqiy asoslari o'rganish;
- milliy iqtisodiyotta chet el sarmoyalarini jalb qilish bosqichlarini o'rganib, yutuqli taraflarini iqtisodiyotga yanada chuqurroq joriy etishni asoslash;
- O'zbekistondagi, shuningdek Namangan viloyatidagi qo'shma korxonalar faoliyatlarini tahlil qilish;
- qo'shma korxonalar tanlagan strategiyasiga erishishining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berish;

- qo'shma korxonalar va ularning ichki bozorni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida tashkil etilgan xorijiy investitsiyali korxonalar, shuningdek Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati olib borayotgan qo'shma korxonalarining iqtisodiy va marketing faoliyatlari.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Respublikamiz milliy iqtisodiyotida faoliyati chet el sarmoyasi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rganildi, tahlil va tadqiq qilindi. Natijada, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Shulardan asosiylari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbekiston Respublikasiga chet el sarmoyasini jalb etishda qo'shma korxonalar tashkil etishning ahamiyati asoslab berildi;

- qo'shma korxonalar tashkil etishning huquqiy asoslari o'rganildi;

- milliy iqtisodiyotda chet el sarmoyalarini jalb qilish bosqichlarini o'rganib, yutuqli taraflarini iqtisodiyotga yanada chuqurroq joriy etishni asoslandi;

- O'zbekistondagi, shuningdek Namangan viloyatidagi qo'shma korxonalar faoliyatlarini tahlil amalga oshirildi;

- qo'shma korxonalar tanlagan strategiyasiga erishishining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi;

- qo'shma korxonalar va ularning ichki bozorni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Chet el sarmoyasiga asoslangan qo'shma korxonalar faoliyati ustida ish olib borayotgan olimlar va mutaxassislarining ilmiy izlanishlaridan foydalanildi. Uslubiy yondoshish sifatida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Oliy majlis qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya va Iqtisodiyot vazirliklarining yo'riqnomalari, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi va Namangan viloyati statistika bosh boshqarmasining yillik hisobot materiallaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Olingan natijalaridan O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotiga, shuningdek, Namangan viloyati yetakchi tarmoqlariga chet el sarmoyasiga asoslangan qo'shma korxonalar tashkil etishga oid dasturlar ishlab chiqishda tavsiya sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, talabalarga iqtisodiy fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda yordamchi material tariqasida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va xajmi. Malakaviy ish kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan.

1-Bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL SARMOYASINI JALB QILISHDA QO'SHMA KORXONALARNING ROLI VA UNI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1.1. O'zbekiston Respublikasiga chet el sarmoyasini jalb qilishda qo'shma korxonalarining roli

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qayta qurish jarayonlarining kengayishi va iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi shuni ko'rsatadiki, halq xo'jaligi ish yuritishining samaradorligini oshirishning asosiy vazifasini hal etish, uni texnika jihatdan qayta jixozlash va rivojlanishning Yangi sifatlariga erishishda ham ichki ham tasqi omillardan mohirona foydalanishni talab qiladi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida O'zbekiston iqtisodiyotini bundan keyin yanada rivojlantirish uchun dunyoda mavjud bo'lgan moliyaviy, material va boshqa resurslarni jalb qilishda ro'y beradigan masalalarni echishga harakat qilmoqda. Agarda shunday qilinmasa, iqtisodiyotni hozirgi og'ir ahvoldan olib chiqish uchun eng muhim bo'lgan - vaqtni boy berib qo'yishi mumkin. Bunday sharoitda ishlab chiqarishni internatsionallashtirish tendensiyasini va uni ob'ektiv qonuniyatlarini ham nazariy, ham Amaliy nuqtai nazaridan o'z vaqtida baholash va uni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi hozirgi bosqich talablariga javob beradigan shakllarga yo'naltirish zarur.

Ma'lumki, O'zbekistonning dune iqtisodiyotiga kirib borishida, hozirgi davr ishlab chiqarishini internatsionallashtirish jarayoni juda muhimdir. Yuqori darajada diversifikatsiya qilingan iqtisodiyot o'zining eng yuqori samaradorligiga faqatgina, umumjahon ishlab chiqarish jarayoniga qo'shilgan holdagina erishishi mumkin. MDX davlatlari ichida O'zbekiston iqtisodiyoti halqaro mehnat taqsimoti muhitida oldingi o'rinlarda tursada, baribir faqat jahon xo'jaligigina ishlab chiqarishni internatsionallashtirish qonuniyatlari faoliyatining harakat doirasida bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarishni internatsionallashtirish - dunyo ishlab chiqarish jarayonining hamma bosqichlarida ma'lum darajada birlashishga erishishni ko'zda

tutadi, bu narsa birgalikda ishlab chiqarish faoliyatiga ham bog'liqdir. Keyingi vaqtlarda davlatlarda dunyo xo'jaligi sub'ektlari bilan birgalikda ishlab chiqarishni rivojlanishi, birgalikdagi tadbirkorlik bilan yanada bog'lanib bormoqda. Qo'shma korxonalarini - birgalikdagi ishlab chiqarish faoliyatining internatsionallashtirilgan shakllaridan biri deb qarash mumkin. Ishlab chiqarishda hamkorlik qilishning boshqa, ma'lum bo'lgan yaxshi shakllari ilgaridan mavjud bo'lgan. Jumladan: kooperatsiya, texnologiyalarni almashish va boshqalar. Shuning uchun ham qo'shma korxonalarini ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishning shakllaridan biri sifatida qarash mumkin.

Shu bilan birga qo'shma korxonalarini paydo bo'lishi va ular sonining oshishini, halqaro ishlab chiqarish aloqalarini umumdunyo miqyosida rivojlanish jarayonining yangi bir zamonaviy formasi sifatida harakterlash mumkin.

O'zbekistonning iqtisodiy munosabatlarda qatnashishida maksimal samaraga erishish vazifasi, hozirgi sharoitda bu munosabatlarni amalga oshirish ko'p yoqlama ekanligini ko'rsatadi.

Gap shundaki, dunyo xo'jaligida bir vaqtning o'zida ishlab chiqarishning ham milliy, ham internatsional ko'rinishdagi turlari mavjuddir. Ular amaliyotda xo'jalik yuritishni faqatgina turli xil shakldagi munosabatlar orqali amalga oshirishlari mumkin. Ularning xech qaysisi yakkalikda eng yaxshi natijalarga erishishga davogar bo'la olmaydi.

Munosabat shakllarining kengayishi natijasida ham vaqtinchalik, ham uzoq muddatga mo'ljallangan ishlab chiqarishni internatsionallashtirish vujudga keladi. MDX davlatlarining tajribalari shuni ko'rsatadiki, chet el firmalari bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish milliy iqtisodiyotning tashqi savdosini rivojlantirishga olib keladi.

Qo'shma korxonalar - bu shunda / shakllardan biriki, korxonalar halqaro hamkorlik qatnashchilari boshqa shakldagi korxonalar orqali bir xil sharoitda amalga oshirolmagan iqtisodiy manfaatlarini hal qilish imkonini beradi. Qo'shma korxonalar hozirgi sharoitda, iqtisodiy munosabatlar muhitida hamkorlikning eng rivojlangan shakli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Halqaro qo'shma korxonalar deganda shuni tushunish mumkinki, bunda ikki yoki undan ortiq davlatlarning, ikki yoki undan ortiq mulkdorlari o'z kapitallarini, tajribalarini, bilimlarini birlashtiradilar va ko'rilgan zarar, foydalarni bir me'yorida taqsimlab, birgalikda korxonani boshqaradilar. Xalqaro ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilari manfaatlari umumiydir. Shu bilan birga mulkdorlik munosabati bu yerda milliy - davlat chegarasida rivojlanadi.

Hozirgi sharoitda qo'shma korxonalar, internatsionallashtirishning eng ma'qul varianti bo'lishi mumkin. Undan tashqari yagona internatsional iqtisodiy manfaatlar va bunga mos keladigan mol - mulk munosabatlarining yigilishi bilan birgalikda dunyo xo'jaligi miqyosida ishlab chiqarish qatnashchilarining sarmoya fondlari erkin ko'chib yurishi mumkin. Ishlab chiqarishni internatsionallashtirishning bu shakli yuqori o'rinni egallashi mumkin.

Iqtisodiy munosabatlarda qo'shma korxonalar nima bilan namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz. Ular o'tish davrida dunyo xo'jaligi rivojlanishining zamonaviy o'ziga xos xususiyati bo'lib hisoblanadi. O'tish nafaqat zamonaviy jahon xo'jaligi ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi, balki jahon ishlab chiqarish jarayonining tuzilishida ham namoyon bo'ladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarining hamma bosqichlarida tinchlik bilan xo'jalik yuritish aloqalariga ham makroiqtisodiy, ham mikroiqtisodiy tomondan jalb qilinishi faqat bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin.

Shuning uchun ham zamonaviy o'tish bosqichi, makrodarajadagi halqaro iqtisodiy munosabatlarning alohida «o'tish» shakllarini talab qiladi. Shunday shakllarning biri bo'lib, qo'shma korxonalarni tashkil etish hisoblanadi. Butun jahon iqtisodiyotini yanada erkinrok bo'lgan, halqaro resurslar, texnologiyalarga, fondlar harakatiga yo'naltirilgan sharoitda, ular samaralirok va «ochiq» iqtisodiyotga loyik bo'lishlari, ishlab chiqarishni ig'ternatsionallashtirilgan shakli bo'lishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, bunday yuqori darajadagi halqaro shakl ishlab chiqarishni transmilliylashtiradi. Kapital olib kiradigan chet ellik qatnashchi uchun qo'shma korxonani paydo bo'lishi qanday ahamiyatga ega bo'lishini ko'raylik. Bu qatnashuvchi uchun eng muhim ahamiyat bo'lib, bozorga kirib borish, arzon

bo'lgan material va mehnat resurslaridan foydalanish mumkinligi, kapitalni chetga olib chiqish mumkinligi hisoblanadi. Qo'shma korxonaga chet el kapitali texnika va texnologiya ko'rinishida kiritilishi mumkin.

Kapitalni qabul qiladigan tomon uchun ham bu qanday ahamiyatga ega bo'lishi aniq: bu ichki bozorni to'ldirish, ishlab chiqarishni boshqarish bo'yicha zamonaviy tajribaga ega bo'lish, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan tovarlarni ishlab chiqarish va milliy iqtisodiyotga g'arblik sherik ishlab chiqarishining texnik - iqtisodiy parametrlarini ixtisoslashtirishdan iboratdir. Milliy qatnashchilarning iqtisodiy manfaatlari bir muncha qiyinroq, kapital qabul qiladigan davlat manfaati - bu iqtisodiyotda ilg'or tarmoqlarni rivojlantirishdir. Qo'shma korxonani o'zining manfaati - bu tashkil etilayotgan korxonaning foydaliligidir. Makroiqtisodiy darajada qo'shma korxonalar - jamiyatning alohida iste'mol - mahsulotlariga bo'lgan talabini kondirish maqsadida, ishlab chiqarish va sarmoyalash jarayonining bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.


Xalq xo'jaligi bir qancha tarmoqlarining ishlab chiqarishini optimallashtirish va sarmoyalash mumkinligini kengaytirish faqatgina qo'shma tadbirkorlik orqali amalga oshirish mumkin. Shuning uchun ham davlat qo'shma korxonalar tashkil qilishni va chet el kapitalini kirib kelishini tartibga solib turadi. Mikrodarajada bozorga o'tish sharoitida foyda olish mumkinligi, korxonani ishlab chiqarish - rentabelligini oshirishga va harajatlarni kamaytirishga undaydi. Bundan tashqari ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqishni ilg'or darajasiga chiqish uchun chet el sarmoyasini jalb qilishga harakat qiladi.

Korxonalar jamgarma manbalar shi ko'paytirish uchun harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishni rivojlantirish tavakkali chet ellik sherik bilan baham ko'riladi. Qo'shma korxonalarning ma'kul tomonlaridan biri shundaki - u orqali tashqi bozorga chiqish mumkin bo'ladi va o'z tajribasini to'g'ridan to'g'ri berishga qiziqqan chet ellik sherikning boshqarish bo'yicha ilg'or tajribasini qo'llash mumkin bo'ladi. Umuman olganda, qo'shma korxonalar tashkil etishning iqtisodiy manfaatlarini tahlil qilgan holda, shu narsani aytish mumkinki, qo'shma korxonalar umumjahon xo'jaligi rivojlanishining o'tish shakli hisoblanadi.

Qo'shma korxonalar xususiyatining yana bir ko'rinishi shundaki - unda qatnashuvchi tomonlar korxonani tuzish uchun juda extiyotkorlik va gumonlar bilan qatnashadilar.

Xitoy, Vengriya, Chexiya davlatlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, qo'shma korxonalar bunday xulosalarni inkor etmasdan keng rivojlanishga ega bo'ldilar va shuning uchun ham ko'rsatib o'tilgan bu tendensiya bardoshligi bilan ajralib turadi.

Xalqaro aloqalar muhitidan kelib chiqadigan jarayonlarni tushuntirish uchun shu narsani aniqlash kerak bo'ladiki, bu yerda qanaqangi iqtisodiy qonunlar harakatda bo'ladi va hamkorlik tamoyillariga asoslangan holda bu qonunlarni ma'lum bir tartibga keltirish mumkin bo'ladi. Qo'shma korxonalar iqtisodiy qonunlarning faoliyat maydoni hisoblanadi (1.1-rasm).



Manba: Muallif ishlanmasi

1.1-rasm. Qo'shma korxonalarning iqtisodiy qonunlarning faoliyat maydoni sifatida

Umumiqtisodiy qonunlardan: ehtiyojlarning yuksalish qonuni va mehnat unumdorligini o'sish qonuni alohida uzviy bog'langan, birinchisi o'sib borayotgan jamiyat extiyojlarini qo'llab-quvvatlasa, ikkinchisi bu extiyojlarni kondirish vositasidir. Birgalikda olganda bu qonunlar jamiyat rivojining yagona strategik maksidini aniqlab beradi.

Korxonalar samaradorligini asosiy ko'rsatkichi bo'lib, uning foydaliligi hisoblanadi. Mikrodarajada iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida, qo'shma korxonalar qatnashchilari iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishning alohida

bosqichlarida aralashish vujudga keladi. Birinchi o'ringa foyda, qo'shma korxonaning ichki dvigateli sifatida ko'tariladi. Mana shu foyda ishlab chiqarish resurslarining qo'llanishi samaradorligini belgilovchi yagona ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Qo'shma korxonaning asosiy maqsadi bo'lib - ishlab chiqarish resurslari, bilimlari va ularni birgalikda kullanilishi natijasida olinadigan katta iqtisodiy samara hisoblanadi.

Qo'shma korxonaga ikkala sheriklarning qilgan sarmoyasi o'zining maqsadi sifatida har kaysisini iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Chuqur iqtisodiy manfaatlar quyidagi maqsadlarda aniqlanadi:

1. Chet ellik sherik uchun kapitalni o'z-o'zidan ko'payishi bo'lsa, biz uchun ishlab chiqarishni makro va mikrodarajadagi maqsadlariga erishish, ilg'or texnologiyani jalb qilish va zamonaviy boshqarish metodlarini

2. Qo'shma korxonaga qatnashchilarini qo'shgan xissalari qanday shaklda bo'lmasin, qiymat ko'rinishida tasavvur etish mumkin. Sarmoyalangan fondlar qiymatining yuksalishi harakatdagi mehnatni o'tgan mehnatga qo'shilishi natijasida vujudga keladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maqsadga erishishning istiqbolli yo'llaridan biri - qo'shma korxonalar tashkil etishdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, vaqt o'tishi bilan xorijiy sheriklar bilan aloqa o'rnatmagan korxonaga yoki tadbirkorning istiqboli porloq emasligi ko'zga ko'rinadi.

1.2. Qo'shma korxonalar tashkil etishning huquqiy asoslari

Har bir davlatdagi sarmoyaviy muhit, avvalo siyosiy barqarorlikka bog'liqdir. Xuddi mana shu narsa xorijiy sarmoyador uchun o'z faoliyatini rejalashtirishda yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida sarmoyaviy muhitning eng muxim ahamiyati ham shundadir, chunki hozirgi kunda butun Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston siyosiy jihatdan barqaror bo'lgan davlat hisoblanadi. Mustaqillik yillari davomida xorijiy sarmoyadorlar bilan tashkil etilgan korxonalar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishda juda katta ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda tashqi siyosatga doir tamoyillarimizni belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qoidalarga asoslangan holda, «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risidagi», «Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlari faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi» qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 noyabr 1996 yildagi «Xorijiy sarmoyadorlar bilan birgalikda tuzilgan korxonalariga beriladigan kushimcha imtiyozlar to'g'risida»gi farmoyishi, Vazirlar Maxkamasining 2 iyun 1997 yildagi 336 - sonli «O'zbekiston Respublikasida xorijiy sarmoyadorlar bilan birgalikda korxonalarni tashkil etish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish tartibi to'g'risida»gi qarori tashqi iqtisodiy faoliyatni va chet ellik sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlarni yaratish hamda xorijiy mamlakatlar tadbirkorlari bilan savdo iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, xorijiy sarmoyadorlarning respublikamizga kelishishini erkinlashtirish uchun Vazirlar Mahkamasining 21 noyabr 1996 yildagi «O'zbekiston Respublikasiga keladigan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni mamlakatimizga kelishi va ketishi tartibi to'g'risida»gi qarori mamlakatimiz sarmoyaviy muhitiga ijobiy tomondan qarashga imkon beradi.

Mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasiga keng ko'lamda integratsiyalashuvi, iqtisodiyotimizga sarmoyalarni olib kirilishi uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratildi. O'zbekistonda «ochiq eshiklar» siyosati olib borilmoqda, xorijiy sarmoyadorlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishlari uchun ishonchli huquqiy kafolatlar va keng iqtisodiy imkoniyatlar berilmoqda.

Xorijiy sarmoyalar uchun eng qulay tartiblar yaratilgan va ular muttasil takomillashtirib borilmoqda. Chet el sarmoyasi ishtirokida ishlab chiqarish korxonalari ochish jarayoni mumkin qadar osonlashtirilgan. Respublikada qabul qilingan qonunlar va qonun asosidagi xujjatlar, chet el firmalari va kompaniyalari O'zbekiston bozorlarida faol ishtirok etish uchun soliq sohasidagi imtiyozlar hamda rag'batlantirish choralarining siyosiy va tijorat sohasidagi xavf-xatarlardan kafolatlarning yaxlit tizimini, qulay qonuniy sharoitlarni yaratib berdi.

Amaldagi qonunlar bo'yicha chet ellik sarmoyadorlarga beriladigan asosiy kafolatlarning to'liq bo'lmagan ro'yxati quyidagilardir:


1. O'zbekiston Respublikasidagi xorijiy investitsiyalar natsionalizatsiya va rekvizatsiya qilgmaydi;

2. Xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olingan foydani va boshqa mablag'larni xech bir cheklovchiz chet el valyutasida chet elga o'tkazish kafolatlanadi. Shuningdek, import bo'yicha olib kiritilayotgan xom ashyo, butlovchi buyumlar va zamonaviy texnologiyalardan olingan tushumni xech moneliksiz chet el valyutasiga ayirboshlash ta'minlanadi;

3. Chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida, shu jumladan kuchmas mulk oldi-sotdisida erkin qatnashishi kafolatlanadi. Chet ellik sarmoyadorlar mulkiy huquqlarni, shu jumladan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlariga hamda turar joy binolari va ular joylashgan er uchun mulk huquqini, yer va tabiiy manbalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo'lga kiritishga haqlidir;

4. Chet el sarmoyadorlari ishtirokida tashkil etilgan korxonalar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksport qilish va uz ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni import qilish hamda qo'shma korxonalarining Nizom fondiga xissa qo'shish uchun boj to'lamasdan mulk olib kirishga haqlidir.

Amaldagi qonunlar chet ellik sarmoyadorlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasida ham keng imtiyozlar beradi (1.2-rasm)



Manba: Muallif ishlanmasi

1.2-rasm. Chet ellik sarmoyadorlar uchun soliq sohasidagi imtiyozlar

Yuqorida keltirilgan rasmda O'zbekiston Respublikasida berilgan imtiyozlardan yana bir qanchasini keltirish mumkin. Jumladan:

- chet el sarmoyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarini uchun foydadan soliq olishning tabakalshggirilgan stavkalari joriy etilgan. Bu stavkalar xorijiy investorning qo'shma nizom fondidagi ulushi qanchaligidan kelib chiqib, ular uchun soliq stavkalarining tegishli kamaytirilishi nazarda tutiladi;

- nizom fondida chet el sarmoyasining ulushi 30% dan ortiq bo'lgan, qishloq xo'jalik mahsulotini, xalq iste'moli mollari va qurilish materiallari, tibbiyot uskunalari, qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun mashina va uskunalarni ishlab chiqarish hamda qayta ishlashga, ikkilamchi xom ashyo va ro'zg'or chiqindilarini qayta ishlashga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 2 yil mobiynda foydadan soliq to'lashdan ozod qilinadi;

- Chet ellik sherikning uz extiyohlari uchun respublikamizga olib kirayotgan mulki, chet el sarmoyalari ishtirokidagi korxonalarining nizom sarmoyasiga mulk bilan qo'shadigan xissasi hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga umumiy xajmi 50 mln. dollardan ortiq miqdorda qilinadigan sarmoyalar ham boj to'lashdan ozod qilinadi.


1997 yil 1 yanvardan xorijiy sarmoyalar bilan tashkil etilgan korxonalar uchun bir nechta imtiyozlar qabul qilindi.

- Nizom fondi 150 000 AQSH dollarini va xorijiy sarmoya korxonaning 30 % kapitalini tashkil etsa 7 yil muddatga foyda soligidan ozod qilinadi.

- Agarda xorijiy sarmoya 300kk000 AQSH dollaridan 1000000 AQSH dollargacha bo'lsa va nizom kapitalining 50% dan ohsa soliq stavkasi 20% ga kisqaradi.

- Agar sarmoya 1 mln. AQSH dollardan ohsa va 50 % nizom fondi xorijiy qatnashchi tomonidan amalga oshirilsa, soliq stavkasi 15 % ga pasayadi. Bulardan tashqari, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar respublikaning hamma korxonalariga berilgan imtiyozlardan ham foydalaniladi.

Bundan tashqari chet ellik sarmoyadorlariga yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassalar tarmogi tashkil etilgan (1.3-rasm).



Manba: Muallif ishlanmasi

1.3-rasm. Chet ellik sarmoyadorlariga yordam ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar

Shunday qilib, vujudga keltirilgan huquqiy me'yorlar xorijiy hamkorlikning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratib, ularning huquqlarini va sarflangan sarmoyasini himoya qiladi.

Bunday sharoitni xorijiy sarmoyadorlarni o'zlari guvoxi bo'lib turibdilar.

«Petroleks» firmasining maxsus vaqili David Gaon ezishicha «O'zbekistonda iqtisod va siyosat barqaror, xorijiy sarmoyadorlarining huquqlari qonun bilan himoyalangan. Bu erda bizning manfaatlarimizga xavf soladigan kuchlar yo'k. Bundan tashqari bizga keng miqyosdagi imtiyozlar berilgan. Bu imtiyozlar sarmoyadorlar uchun tez vaqt ichida qilingan harajatlarini qoplash imkonini beradi. Umuman olganda, soliq siyosati bu mamlakatda shundayki, u ishlab chiqarishni kengaytirishga halaqit qilmaydi. O'zbekiston Davlati xorijiy sheriklari oldidagi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmoqda va xorijiy sarmoyadorlarning roziligisiz shartnoma shartlarini o'zgartirmaydi».

O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlariga sarmoyalarni jalb etish va ularni o'zaro himoya qilish to'g'risida Germaniya, Turkiya, Misr, Indoneziya, Malayziya,

Pokiston, Finlyandiya, Koreya, AQSH, Fransiya kabi dunyoning bir qancha mamlakatlari bilan bitimlar imzoladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan ko'rsatilayotgan choralar tashqi iqtisodiy aloqalarni va xorijiy sarmoyalarni rivojlantirishga yordam bermoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda 3200 dan ortiq qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tkazilgan, bo'lardan 535 tasi Davlat korxonolari asosida tashkil etilgan.

Respublikamiz hukumati Kanada, Xitoy, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shvetsariya banklari va firmalari bilan respublikamizning aniq ob'ektlarini kreditlash uchun bitimlar tuzdi, hozirda bu bitimlar amalda bo'lib bir nechta yirik korxonalar faoliyat ko'rsatib turibdi. Bulardan: «GeneralMotors», «UzDEUElektroniks», «Samkochavto», «Uzkeysservis», «UzBAT», «Zarafshon-Nyumant», «Zarispark», «Agama», «Kabo'l-Tuytepa-Teksteylz», «Katiks», «Elteks», «Supertekstil», «Koka-kola», «Uzsalaman», «Kibo», «Tufin» va shu kabi bir nechta korxonalaridir. Shuningdek, Germaniya va Koreya davlatlarining firmalari ishtirokida ko'pgina tuman va shaharlar telefon tarmoqlari zamonaviy usulda yangilandi.

O'zbekiston Respublikasi hududida qo'shma korxonalar to'zishning huquqiy masalalariga 1992 yilda asos solingan edi. Ko'rsatilgan me'yoriy xujjatlarda, iqtisodiy integratsiyani yanada rivojlantirish bilan birga, hozirgi sharoitda bo'lgan xo'jalik faoliyatini boshqarish strukturasi rivojlantirish uz aksini topgan. Bu keltirilgan xujjatlarga binoan qo'shma korxonalar, kasanashchi - davlatlarning hukumatlararo munosabatlari asosida, faqatgina manfaatdor vazirliklar va tashkilotlarning taklifi bo'yicha tuzilishi mumkin. Iqtisodiyot mexanizmining qayta qurish, shu bilan birga xususiylashtirish yo'lidan borayotgan korxonalar mustaqilligini o'rnatish, ularni huquqlarini rivojlantirish, qo'shma korxonalar huquqiy rejimini tartibga keltirishni va ularga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda.

O'zbekistonlik va xorijlik tashkilotlar va firmalar boshqaruv organlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi hududida qo'shma korxonalar tuzmoqdalar. Hukumat farmoyishi va qarorlari qo'shma korxonalar tuzish va ularning faoliyati masalasini tartibga solish bo'yicha, ya'ni soliqqa tortish tartibi, faoliyat ko'rsatish

uchun yer uchastkalarini berish, korxonalar tomonidan vujudga keltiriladigan resurslar va bu korxonalar faoliyati jarayonida sodir bo'ladigan baxslarni qurish tartibi bo'yicha umumiy tamoyillar ishlab chiqdi.

Farmoyishda ko'rsatilgan huquqiy normalar qo'shma korxonalar ishtirokchilarining ikkalasiga ham bir xilda amal qiladi.

Shu bilan birga qo'shma korxonalar huquqiy normalarining eng ahamiyatli tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Qo'shma korxonalar, ya'ni xorijiy sheriklar bilan tuzilgan korxonalar faoliyati tartibga solingan va aniq-ravshan o'rganilgan;

2. Hukumat karorlarida qo'shma korxonalar tashkiliy - huquqiy shakli masalalari chuqurroq tartibga solinadi. Karorlarda gap nafaqat qo'shma korxonalar to'g'risida, balki halqaro tashkilotlar va birlashmalar to'g'risida ham boradi;

3. Xorijiy sheriklar bilan birgalikdagi qo'shma korxonalar ham fuqarolik - huquqiy harakterdagi shartnomalar asosida, ham hukumatlararo va davlatlararo munosabatlar asosida to'zilishi mumkin.

Qo'shma korxonalar tuzishda va faoliyatini tartibga solishda, vazirliklar, turli xil idoralarning instruksiyalari, normativ aktlari juda muhim ahamiyatga egadir.

Bularning ichida eng muhimlari quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining «Qo'shma korxonalar mulklarini sugurtalash tartibi to'g'risida»gi instruksiya.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining «Qo'shma korxonalar soliqlarini to'lash to'g'risida»gi instruksiya.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining «O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekistonlik va xorijiy tashkilotlar, firmalar va boshqaruv organlari bilan birgalikda tuzilgan qo'shma korxonalar, halqaro tashkilotlar va birlashmalar ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi instruksiya.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan qo'shma korxonalar bilan boglangan masalalarni tartibga soladigan huquqiy normalarni aniqlangan holda quyidagi uch xil aktni ajratib ko'rsatish zarur.

1. Yuridik shaxslar sifatida tan olingan qo'shma korxonalar tarqatiladigan fuqarolik qonuniyatlari akti.

2. Qo'shma korxonalar faoliyatiga tegishli bo'lgan maxsus harakterdagi normativ aktlari.

3. Umumfuqarolik va maxsus harakterdagi, har bir korxonani o'rnini belgilab boruvchi, qatnashchilar tomonidan tuziladigan nizomlar va qo'shma korxonalar tuzish to'g'risidagi shartnomalar.


Hukumat karorlariga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida to'ziladigan qo'shma korxonalar O'zbekiston yuridik shaxslari bo'lib hisoblanadi. Bu degani - agar qonun chiqaruvchilar tomonidan qo'shma korxonalar alohida huquq normalari chiqarilmagan bo'lsa, qo'shma korxonalar yuridik shaxs sifatida, O'zbekistondagi boshqa korxonalar kullaniladigan huquqiy normalar qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asosan qo'shma korxonalarni O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari sistemasida o'rnini aniqlab, quyidagiga tayanish mumkin: ya'ni, yuridik shaxslarni: davlat, kooperativ, davlat kooperativ va boshqa turdagi tashkilotlarga klassifikatsiyalash asosida eng muhim kriteriya sifatida - bu korxonalarni mol-mulk bilan ta'minlanishi yotadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga asosan qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab yuridik shaxs makomini oladi. Qo'shma korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi Moliya Vazirligining «O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekistonlik va xorijiy tashkilotlar, firmalar, boshqaruv organlari bilan birgalikda tuzilgan qo'shma korxonalar, halqaro tashkilotlar va birlashmalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi instruksiyaga asosan aniqlanadi.

Xuddi o'zbek yuridik shaxslari singari qo'shma korxonalar ham maxsus huquq qobiliyatiga egadirlar va shundan kelib chiqqan holda faqat nizomda ko'rsatilgan maqsadlarga mos keladigan kelishuvlarni tuzishlari mumkin. Agar qo'shma korxonalar nizomda ko'rsatilgan maqsadlarga mos kelmaydigan kelishuvlarni tuzsalar, u holda bu kelishuv xaqiqiy emas deb topiladi.

Qo'shma korxonalar yuridik shaxs sifatida yuridik shaxslarning hamma alomatlariga ega bo'ladilar: jumladan, mol-mulkka ham, ko'rsatib o'tilgan mol-mulk qo'shma korxonaning xususiy mulki va u qatnashuvchilarning umumiy xissaviy mulki bo'lib hisoblanadi.

Qo'shma korxonalarning mulki bir xil ko'rinishda bo'lmaydi. Mol-mulki sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin (1.4-rasm).



Manba: Muallif ishlanmasi

1.4-rasm. Qo'shma korxonalarning mol-mulki

Ko'rsatib o'tilgan mol-mulknı huquqiy rejimi bir xil emas. Birinchi gruppada ko'rsatilgan mol-mulklarga: yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon - bular faqat davlat mulkidir. Bu mulklar qo'shma korxonalariga davlat tomonidan ham pullik, ham bepul tarzda ishlatish uchun beriladi.

Bundan tashqari qo'shma korxonalar asosiy va aylanma fondlarga ham ega bo'ladilar. Mol-mulklarni asosiy va aylanma fondlarga bo'linishi korxonada mol-mulknı sug'urtalashni majburiylikda ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yerda ikki xildagi sug'urtalash ko'rsatiladi: asosiy fondlarni sug'urtalash va aylanma fondlarni sug'urtalash.

Hisob-kitoblarni olib borish vaqtida qo'shma korxonalar tipovoy formalarni qo'llashlari zarur. Uzbek davlat tashkilotlarini asosiy mablag'lardan foydalanishdagi cheklashlarga kelganda, qo'shma korxonalar bunday cheklashlardan mustasnodir.

Qo'shma korxonalarda xususiy mulknı borligi yoki u ishlatishi mumkin bo'lgan mulknı borligi u tomonidan xo'jalik faoliyatini yuritishga imkon beradi.

Oqibatda huquqiy nuqtai nazardan qaraganda qo'shma korxonaning xo'jalik faoliyati ikki xil operatsiyani amalga oshirishi mumkin:

1. Korxonani kerak bo'ladigan xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash.
2. Tayyor bo'lgan mahsulotni sotishni amalga oshirish.

Bu operatsiyalarni qo'shma korxonalar ikki xil yo'l bilan amalga oshirishi mumkin.

1. Tashqi bozor orqali.
2. Ichki bozor orqali.

Tashqi bozorda qo'shma korxonalar o'z mahsulotlarini maxsus tashqi savdo tashkilotlari orqali sotishi yoki o'z nomidan sotishi mumkin.

Shunday sharoitlar tuzish ko'zda tutilganki, qo'shma korxonalar uchun xom ashyoni ichki bozordan olib, tayyor mahsulotni ham ichki, ham tashqi bozorda sotish foydali bo'ladi. Bunday vaqtda qo'shma korxonalar ish faoliyatida valyuta jihatidan o'z-o'zini qoplashga erishadi.

Qo'shma korxonalar uchun eng muhim muammolardan biri bu - soliqqa tortishdir. Bu miqyosga amal qiladigan huquqiy normalar o'z harakteri bo'yicha ma'muriy - huquqiy bo'lib, hisoblanadi. Qo'shma korxonalarini soliqqa tortishning ko'rsatilgan xujjatlardagi umumiy tamoyillari quyidagicha:

1. Qo'shma korxonalar o'z faoliyatining birinchi 2 yilida soliqdan ozod qilinadilar.

2. Qo'shma korxonani soliqqa tortish bo'yicha baxslar yuzaga kelsa, bunday korxonalar moliya organlarining bu harakati yuzasidan yuqori tashkilotlarga murojaat qilishlari mumkin.

3. Qo'shma korxonalar soliq imtiyozlariga egadirlar. Ular olinishi mumkin bo'lgan foydani olish kunidan boshlab 3 yilgacha foyda solig'idan ozod etiladilar

Qo'shma korxonani faoliyati jarayonida korxonaning o'zida va o'zbek tashkilotlari bilan yuzaga keladigan baxslar, davlat xo'jalik sudida ko'riladi.

Agarda, baxslar korxonada qatnashuvchi tomonlari o'rtasida yuzaga kelsa, bunday baxslar korxonalar nizomi bo'yicha hal qilinadi. Odatda tomonlar bu

baxslarni xo'jalik sudida yoki uchinchi davlat huquqiy tashkilotlari orqali hal etishadi.

Xulosa qilgan holda shuni aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi hududidagi qo'shma korxonalar faoliyati hozirgi vaqtda etarli darajada tartibga keltirilmagan. Ko'pgina masalalar korxonani o'zida hal qilish uchun tashlab qo'yilgan.

Hozirda bu narsani yechish mudain bo'lsada, biroq qo'shma korxonalarni respublikamiz hududida tashkil etishni rivojlanib borishi bu to'g'ridagi qonuniyatlarni yanada rivojlantirish kerakligini ko'rsatib turibdi. Bu rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bizning fikrimizcha quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Qo'shma korxonalar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi miqyosida nazoratga olish tizimini to'zish.

2. O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy mulklarni samarali himoya qilish tizimini tuzish. («Halqaro shaxsiy huquq» qonuni doirasida).

3. Xo'jalik hisobi sharoitida korxonalar va tashkilotlar, qo'shma korxonalar manfaatlarini himoya qiladigan qonuniyatlarini ishlab chiqish.

Jumladan:

«Girrom raqobatga qarshi kurash» qonuni.

«Ishlab chiqarishning majburiyatlari» qonuni.

Umuman olganda, yana bir marotaba ta'kidlab o'tish joizki; qo'shma korxonalarining samarali faoliyati faqatgina O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish sharoitida va uni xaqiqiy xo'jalik hisobini rivojlantirishga yo'naltirilgan vaqtdan amalga oshishi mumkin.

2-BOB. MILLIY IQTISODIYOTGA CHET EL SARMOYALARINI JALB ETISH VA QO'SHMA KORXONALAR TASHKIL QILISH HOLATI TAHLILI.


2.1. Milliy iqtisodiyotga chet el sarmoyalarini jalb etishning rivojlanish bosqichlari

Bozor iqtisodi rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, ular o'z iqtisodini yuksaltirish jarayonida u yoki bu turdagi xorijiy investitsiyalardan foydalangan. Bunday tajriba bizning respublikamizga ham xos xususiyat, albatta. Xorijiy investitsiyalar halq xo'jaligi tarmoqlari iqtisodiga jalb etilgan taqdirda bu tarmoqlar bosqichma-bosqich rivojlanadi, shuningdek qator iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy samaralar olinadi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, ishsizlik kamayadi;
- ikkinchidan, tovar va xizmatlarning asosiy ulchov mezoni bo'lgan sifat yaxshilanadi;
- uchinchidan, mamlakatda import qilinishi lozim bo'lgan tovarlar va xizmatlar urnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi, natijada valyuta zaxiralari tejilishi bilan birga, valyuta daromadlari ko'payadi;
- to'rtinchidan, davlatlararo iqtisodiy yaqinlashuv, siyosiy muzoqaralar orqali strategik hamkorlik qilishga tub asos yaratiladi.

Yuqorida zikr etganimizdek, ushbu yo'nalishlar nazariy tomondan asoslab berilgan. Biroq qator ob'ektiv, sub'ektiv hodisa va holatlar sababli ularni amalga oshirish jarayoni turlicha kechadi. Mazkur ob'ektiv va sub'ektiv sabablarning tub mohiyatini ochish uchun tarixiy jarayonlarni qiyosiy o'rganishi darkor. Prezidentimiz I.Karimov o'z risolalarining birini: «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»¹ - deb nomlagan edi. Ushbu risola aynan biz tahlil qilayotgan mavzuga mazmunan mos kelmasada, biroq uslubiy yo'nalishiga bevosita mos keladi. Biz xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va rivojlantirish tadbirlarini uch bosqichga bo'lib o'rganishni lozim topdik (2.1-rasm).

¹ И. Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йук. Т.: Узбекистон, 1999 й.



Manba: Muallif ishlanmasi

2.1-rasm. Investitsiyalarni jalb qilish va rivojlantiris hbosqichlari

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va rivojlantirishning birinchi bosqichida «konsessiya» shartnomalari markaziy o'rinda turgan. 1925 yilda sobiq, ittifoqda 92 ta xorijiy konsessiya shartnomasi mavjud bo'lib, ulardan 43 tasi sanoat tarmog'ida faoliyat ko'satgan, kolganlari halq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida tashkil qilingan. Ushbu korxonalarda 54 mingga yaqin ishchi va xizmatchilar mehnat qilgan¹. Bu ko'rsatkich ufa davr uchun katta hisoblanar edi. Konsessiya shartnomasi asosida faoliyat ko'satgan xo'jalik sub'ektlari xususiy korxonalardan ortda qolsa ham ular iqtisodiy samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turgan. Masalan, amerikalik kapitalist Armand Hammer Moskvada pero va qalam ishlab chiqarish fabrikasi tashkil etib, qisqa davr ichida ushbu tovarlarga bo'lgan ichki talabni qondirish bilan bir qatorda, xorijga ham eksport qila boshlagan.

Albatta o'sha davrdagi ashaddiy kommunistlar tomonidan tabiiy savollar berilgan. Kapitalistik tuzumni ko'p talafotlar evaziga yo'qotgan va yangi sotsialistik tuzum qurayotgan bir davrda, nega yana kapitalistik ishlab chiqarish usuliga imkoniyat yaratib berilmoqda? Kapitalistlarni taklif qilish xavfli emasmi? Konsessiya shartnomalarini rivojlantirish kapitalizmni rivojlantirish degan gap va shunga o'xshashlar. Bunday mazmundagi savollarga o'sha davr xabarlarini quyidagi mazmunda javob qaytarganlar. Ha, konsessiya usuli kapitalizmni rivojlantirishga

¹ Меньшиков С. Катастрофа или катерсис? - Мос ва. «Интер-версо» 1990. Стр.14.

imkon beradi, biroq bu siyosat siz o'ylagancha xavfli emas, chunki xokimiyat ishchi va dexqon qo'lida, pomeschik va kapitalistlar endi xech qachon mulkka egalik qilolmaydi. Konsessiyaning iqtisodiy mazmuniga qaraydigan bo'lsak, u ijara shartnomasini anglatadi. Shartnomaga asosan kapitalist davlat mulkining bir qismini ma'lum shart va muddatga ijaraga oladi va mulk egasi makomiga ega bo'lolmaydi. Davlat mulk egasi bo'lib qolaveradi. Natijada sovet hukumati ijarachi kapitalistning shartnomaga qat'iy rioya qilishini nazorat qiladi. Muhimi, shartnoma qulay va samaradorligi tufayli ishchi-dexqon axvolini yaxshilashga xizmat qilsin.

Ushbu javoblar va fikrlar oddiyliги va jozibadorligi bilan ajralib turgan va quyidagi mazmuni anglatgan. Davlat mulkiga tayangin-u, kapitalistni ijarachi sifatida jalb qil; xususiy mulkdorni nazorat qil va uni sotsializm uchun mexnat qilishga, ishlab chiqarishni ustirishga va ishchi-dexqon extiyojini kondirishga majbur et. Kommunistik davlatning bunday noan'anaviy va tashviqot g'oyasiga zid harakatlarga yondoshishi mamlakatning iqtisodiy saloxhiyat / kuchsiz davrlarda ro'y bergan edi. Agar, o'sha davrni real baholaydigan bo'lsak, hukumatning bundan o'zga imkoniyati ham yo'q edi.

1987 yildan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga moliyaviy tanglikdan va iqtisodiy turgunlikdan chiqishga harakat boshlandi. Mazkur davrni biz xorijiy investitsiyalarnig iqtisodidagi urnining ikkinchi bosqichi deb belgiladik.

Sobiq ittifoqda olib borilgan qayta qurish jarayoni xorijiy kapitalga ham uz ta'sirini o'tkazdi. Zotan 20-30-yillardagi konsessiya shartnomalari yuksak rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasa-da, xorijiy investitsiyalarni rivojlantirishning nazariy va siyosiy yo'nalishlarini belgilab bergan edi. Sotsialistik lagerdagi davlatlarda xorijiy investitsiyalar ilk bor Polsha, Vengriya, Xitoy Xalq Respublikalariga va so'ng sobiq ittifoq davlatiga ham yetib keldi.

Dastlabki xorijiy investitsiyali korxonalar 1987 yilning yanvar oyidan boshlab tashkil qilina boshladi. Bu jarayon qayta qurishning dastlabki davrlariga tutri kelgan, hali bu vaqtda «To'la xo'jalik hisobi haqida»gi qonun qabul qilinmagan edi. Biroq harakatlar qattiq va qat'iy bo'lsa-da, kutilgan natija olinmadi. Xo'jalik yuritishning yangi yo'nalishi kuchga kirgan birinchi yilda bor-yo'gi 23 ta qo'shma

korxonalar ro'yxatdan o'tdi. Ikkinchi yili qariyb 200 ta va keyingi yili yana 800 ta xorijiy investitsiyali xo'jalik sub'ekti tashkil qilindi. Qo'shma korxonalar to'zish bo'yicha hamkor GFR, Italiya va Finlandiya davlatlari bo'lib, AQSH va Yaponiya davlatlarining ulushi deyarli yo'q edi. Ro'yxatdan o'tgan qo'shma korxonalar Ustav fondida xorijiy sherikning ulushi juda kam bo'lib, 15 mln. rubldan oshmas edi. Buning ustiga ro'yxatdan o'tgan korxonalarning bor-yo'g'i 10% faoliyat ko'satgani ham bu borada muhit yaxshi emasligidan dalolat berar edi.¹

Xorijiy investitsiyaning kelishiga va qo'shma korxonalar tashkil etishga salbiy ta'sir ko'satgan omillar fikrimizcha quyidagilar edi. Huquqiy cheklashlar dastlabki sabab bo'ldi; ya'ni qo'shma korxonalar ustav fondida xorijiy hamkorning ulushi ko'pi bilan 49% qilib belgilangan, buning ustiga korxonaga albatta mahalliy fuqaro bosh rahbar etib tayinlanishi lozim.

1988 yilning dekabriga kelib qo'shma korxonada xorijiy kapital ulushi bo'yicha cheklovlar qisman olib tashlandi; korxonalar raxbari albatta mahalliy kadr bo'lishi to'g'risidagi qoidalar bekor qilindi; korxonalar tashkil qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalari soddalashtirildi; qo'shimcha soliq, imtiyozlari berila boshladi. Endi faqat davlat tashkilotlarigina emas, balki, kooperativlar ham xorijiy sherik bilan qo'shma korxonalar qurish imkoniga ega bo'ldi.

Yangi qonun va qoidalar bir oz bo'lsa-da xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini tezlashtirdi. Biroq iqtisodiyotda mavjud ayrim ob'ektiv omillar bu jarayonni sustlashtirishga sabab bo'ldi. Masalan, tashqi siyosiy omillarni alohida ko'rsatish lozim. Xususan, Yaponiyaning «Matsusita elektrik» kompaniyasi videomagnitofon ishlab chiqarish haqida shartnoma tuzgan edi. Ammo Yaponiya bilan sobiq ittifoqning shimoliy hududlar masalasidagi siyosiy kelishmovchiligi natijasida imzolangan shartnoma bekor qilindi.

90-yillar boshida xorijiy sarmoyadorlar ittifoqdagi siyosiy-iqtisodiy isloxotlarning barqarorligiga ishonchsizlik bilan qaradilar. Garchi ular mamlakatdagi demokratik harakatlar va oshkoralikni qo'llab-quvvatlasalar-da, lekin eski vaqtlarga qaytish extimoli borligi uchun shoshilmasdan qulay siyosiy

¹ Меньшиков С. Катастрофа или катерсис? - Москва. «Интер-версо» 1990. Стр.337-338.

ob-xavoni kutishdi. Istiqbolli xorijiy sarmoyadorlarning asosiylari sobiq ittifoq davlatidagi ma'muriy buyruqbozlik usuli saqlanib qolganligi va ayrim idoralarda ustivor ahamiyat kasb etayotganligini sezishardi.

Sobiq ittifoqda tomonlar manfaatlarining uyg'unlashmaganligi va rejali iqtisodning bozor iqtisodiga mos kelmasligi, qolaversa sovet mutaxassislarining bozor qonunlarini tan olmasligi ham xorijiy sarmoya solishga to'siq bo'ldi. Ushbu fikrni isbotlash uchun bir misol keltiramiz. Amerikalik bir firma egasi oziq-ovqat xom-ashyosini qayta ishlaydigan zavod dastgohlarini sotish niyatida ittifoqdagi oziq-ovqat sanoati vazirligi bilan shartnoma tuzgach, ushbu zavod jamiyatga xavodek zarur bo'lib, zararlarni qisqartirishga va importga talabni tubdan bartaraf etishga xizmat qilishi lozim edi. Shartnomaga binoan dastgohlarini qulay bino bilan ta'minlash vazirlikka yuklatilgan. Biroq taklif etilgan bino dastgohlar uchun mos bo'lmagan. Agarda bu binodan foydalaniladigan bo'lsa uni ko'tarish yoki dastgohlarni kichraytirish kerak edi. Xorijiy vakilning boshqa bino berish yoki yangi binoni tez qurib olish uchun bir parcha yer beringlar, degan murojaatlariga rad javobi berilgan. Zotan rejali iqtisod uchun bunday tezkorlik yot edi. Shunday qilib, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining byurokratik illatlari sababli foydali loyiha barbod bo'lgan edi.

Binobarin, iqtisodiy, siyosiy manfaatlarining uyg'unlashmaganligi ko'plab tushunmovchiliklarga olib kelgan. Shu sabab 1990 yilning oxirida sobiq, ittifoq, davlatida qariyb 3900 ga yaqin qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan bo'lsa-da, ulardan bor-yo'g'i 1,3 qismigina faoliyat ko'satgan, holos. Mazkur qo'shma korxonalarining asosiylari sobiq, ittifoqning Evropa qismida tashkil qilingan, Markaziy Osiyo respublikalari manfaatlarini bu masalalari ham e'tibordan chetda dolgan.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va rivojlantirish asosan ikki mezon bo'yicha tashkil qilinadi:

1. Ustivor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish.
2. Mehnat resurslari ko'p hududlarda qo'shimcha ish joylari tashkil qilish.

Sobiq ittifoqda birinchi mezon bo'yicha yetarlicha tadbirlar amalga oshirildi, ikkinchi mezon bo'yicha ham faqat ittifoqning Evropa qismlarida ishlar olib borildi. Ish joylari tashkil qilish bo'yicha Kavkazorti va O'rta Osiyo respublikalar iqtisodiyotiga deyarli sarmoya solinmadi. Pirovardida iqtisodiy tanglikka uchragan mamlakatda moliyaviy inqiroz yanada kuchaydi. Endilikda ittifoqda a'zo bo'lgan respublikalarning har biri o'z kuchi va irodasi ila tanglikdan chiqishi lozim edi. Chunki yirik imperiyadagi iqtisodiy tanglik shu qadar kuchaygan ediki, uni iqtisodiy siyosat orqali bartaraf etish mushkul edi.

Mustaqillikka erishganidan so'ng har bir respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini o'zi erkin hal qila boshladi. Respublikalarning siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va rivojlantirishning uchinchi bosqichini boshlab berdi.

Istiqlol sharofati ila O'zbekiston rejali iqtisoddan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tishi asosiy maqsad qilib oldi. Biz sobiq ittifoq davridagi rejali iqtisodiyotda yashayotgan davrimizda qo'shma korxonalarining afzalligi sezilgan edi. O'sha davrdan boshlab to iqtisodiyotni yangi shaklga o'tkazgunga qadar qo'shma korxonalar soni ittifoq bo'yicha salmoqli bo'lsa-da, biroq O'zbekistan sharoitida bu ko'rsatkich ittifoqnikidan bir necha bor kam edi. Albatta, buning qator sabablar bo'lgan lekin, fikrimizcha, ob'ektiv sabablarga nisbatan sub'ektiv sabablar ko'proq edi.


Keyingi yillarda, hukumat raxbarlari tomonidan qo'shma korxonalariga alohida e'tibor berila boshlandi va hozirgi kunga kelib bu korxonalar uchun Hamdo'stlik davlatlariga qaraganda yetarli iqtisodiy hamda huquqiy infrastrukturalar yaratib berildi. Bugungi kunda respublikamiz Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar sonining to'rt mingga yaqinligi mamlakatimizdagi investitsiya ishtirokidagi xo'jalik sub'ektlarini tashkil etishda ishtirok etmoqdalar. Qo'shma korxonalarining eng ko'p miqdori Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH va Pokiston davlatlari bilan hamkorlikda tuzilgan. «Chet el investitsiyalari to'g'risida»¹ va «Chet ellik

¹ Солик туловчининг журнали, - 1998 й. 6-сон

inventorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi hamda hayotga tadbiiq, etilishi ham muxim ahamiyat kasb etdi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosaga keldik. Sarmoyadorlarni jalb qilishni maqsad qilgan rivojlanayotgan davlatning ham, investitsiyalarni yo'naltirayotgan rivojlangan mamlakatlarning ham o'ziga xos strategik maqsadlari bo'ladi. Bizning fikrimizcha, ularni quyidagicha izohlash mumkin.

Rivojlangan mamlakat sarmoyadorlarining rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiga sarmoya solishdan asosiy manfaatlari quyidagi 2.2-rasmda keltirilgan.



Manba: Muallif ishlanmasi

2.2-rasm. Sarmoyadorlarining sarmoya solishdan asosiy manfaatlari

Rivojlanayotgan mamlakatlarning xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishdan asosiy strategik maqsadlari:

- xorijiy zamonaviy texnika va texnologiyadan foydalanish;
- ichki jamgarmani kushimcha manbalar bilan tuldirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun xorijiy boshqaruv tajribasidan foydalanish;
- importni qisqartirish hisobiga valyutani tejash;

- asosan tayyor sanoat mahsulotlari hisobiga eksportni kengaytirish;
- mahalliy iqtisodiyotni muvozanatlashtirishga erishish.

Har qanday xorijiy sarmoyador qo'shma korxonalar tashkil qilishdan oldin bu tadbir uning uchun qanday va qancha iqtisodiy, ijtimoiy samara berishi xaqida oldindan tahlil qilib ko'radi. Agarda sarmoyador ixtiyoridagi bo'lyik iqtisodiy samara bermas ekan, u xech qachon o'zga bir davlatda qo'shma korxonalar ochmaydi. Binobarin, xorijiy sarmoyador uchun shunday iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratib berish kerakki, pirovardida, ular ham, mamlakat ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy samara olsin.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning so'nggi bosqichini biz Respublikamizni mustaqillikka erishgan davridan keyingi vaqtni tahlil qilish ob'ekti sifatida oldik (2.3-jadval).

2.3-jadval

Korxonalar va tashkilotlarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimoti

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2012 yilga nisbatan o'zgarishi
Ozbekiston Respublikasi bo'yicha jami	283,4	298,9	301,6	18,2
SHundan				
Davlat	39,4	39,3	39,4	-
Nodavlat	244,0	259,6	262,2	18,2
Qo'shma korxonalar soni	4,6	4,6	4,7	0,1

2.3-jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'lyaptiki, Ozbekiston Respublikasi bo'yicha jami korxonalar va tashkilotlar 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 18 ming 200 taga oshib, 301 ming 600 taga yetdi. Shundan Davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlar soni o'zgarishsiz qolgan bo'lsada nodavlat korxonalar va tashkilotlar soni 2014 yilda 262 ming 200 tani tashkil etdi. Bu daqvrda mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar soni 4 ming 700 taga yetdi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Ozbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar soni 2012

yilga nisbatan 100 taga oshganligini ko'rish mumkin. Aslida ko'rsatkichlarni bu darajada o'sishi Respublikada investitsion muhitning nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilayotganligidan dalolat beradi.

Yuqorida qayd etganimizdek, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini uch bosqichga bo'lib tahlil qildik. Tahlillar natijasiga tayanib shu narsani aytishimiz mumkinki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni jadallashi, ya'ni xorijiy investitsiyalarning qiymat ko'rinishi bilan birga davlatlar geografiyasi ham kengaydi.

Umuman olganda, bizning fikrimizcha, respublika masshtabiga qaraganda viloyatlar masshtabida xorijiy investorlar bilan hamkorlikda ishlash natijalari xavas qiladigan darajada emas. O'zbekiston Respublikasida, nisbatan qulay investitsion muhit mavjud deyishimizga asos bor, albatta. Chunki, oldingi yuqorida qayd etib o'tganimizdek, xorijiy va mahalliy investorlar uchun yetarlichi me'yoriy xujjatlar qabul qilinib hayotga tadbiiq etilgan. Shuning uchun ham respublikamiz iqtisodiyotida xorijiy investorlarning xajmi ortib bormoqda.

2.2. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalarining iqtisodiy tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2069 sonli qarori asosida viloyat hokimining 2014 yil 11 yanvardagi "Namangan viloyatining 2014 yil hududiy investitsiya dasturi to'g'risida"gi 11-sonli qarori qabul qilingan.

Hududiy investitsiya dasturiga asosan 2014 yilda 12 ta asosiy va 6 ta ustivor loyihalar bo'yicha 16,3 mln.dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi ko'zda tutilgan. Xisobot yakuni bilan amalda dastur doirasidagi hamda qo'shimcha loyihalar bilan birgalikda 16,6 mln.doll. miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etildi.

Jumladan, Namangan tumanidagi "AISHA HOME TEXTILE" Qkda 1379,3 ming dollar, "SOLAR ENERGY GRAND" QKda 105,0 ming dollar, "VOLNA

EKO” QKda 52,5 ming dollar, Namangan shahridagi “PURE LINE LUX” QKda 282,1 ming dollar, "AVTO PLAST PART" QKda 160,1 ming dollar, Uychi tumanidagi "VODIY IPAK GILAMI" QKda 80,0 ming dollar, To'raqo'rg'on tumanidagi "FT TEXTILE GROUP" QKda 807,8 ming dollar, Uchqo'rg'on tumanidagi “UCHKURGAN TEXTILE” QKda 4656,2 ming dollar, Yangiqo'rg'on tumanidagi "NATURAL JUICE" MChJda 63,4 ming dollar hamda 8 ta qo'shimcha loyihalar doirasida 9,0 mln.dollar jami 16,6 mln.dollar miqdorida to'g'ridan to'g'ri horijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

Viloyatni 2013-2015 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Dasturiga asosan 2014 yil davomida 204,7 mlrd so'm miqdorida mablag' o'zlashtirish hisobiga 1347 ta loyihalarni ishga tushirib, (sanoat sohasida 392 ta, xizmat ko'rsatish sohasida 592 ta, qishloq xo'jaligi sohasida 363 ta) 11115 ta ish o'rni yaratildi.

2014 yilda 1347 ta (rejaga nisbatan 100,0%) loyihalar (sanoat sohasida 392 ta, xizmat ko'rsatish sohasida 592 ta, qishloq xo'jaligi sohasida 363 ta) amalga oshirilib, 11182 ta (100,6%) ish o'rinlari barpo etildi. Ushbu maqsadlar uchun 215,3 mlrd so'm mablag'lar (shundan, 135,3 mlrd so'mi tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, 79,8 mlrd so'mi bank kreditlari, 100,0 ming dollar xorijiy investitsiyalar) sarflandi.

2.4-jadval

Namangan viloyatining “2014 yil hududiy investitsiya dasturi to'g'risida”gi

11-sonli qarori bo'yicha bajarilgan ishlar

T/r	Tarmoqlar	Ajratilgan mablag'lar (mlrd so'm)	Loyiha soni	Yaratigan ish o'rni
1	Yengil sanoat	41,1	127	3771
2	Oziq-ovqat	20,7	70	672
3	Qurilish materiallari	27,9	124	1681
4	Charm boyabzali	1,5	8	86
5	Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	12,2	17	337
6	Mebel va qog'oz	3,0	24	243
7	Kimyo va neftkimyo	9,6	16	259
8	Farmotsevtika	8,4	2	107

Manba: Namangan viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari

Umuman olganda sanoat yo'nalishida 392 ta (100,0%) loyihalar, amalga oshirilib, 7200 ta ish o'rinlari (100,0%) yaratildi. Ushbu loyihalarga 124,9 mlrd so'm mablag'lar (shundan, 54,4 mlrd so'mi bank krediti va 100,0 ming dollar xorijiy investitsiyalar) yo'naltirildi.

Buni quyida keltirmoqchi bo'lgan omillar va ko'rsatkichlar bilan izohlab berish mumkin. Birinchidan, xorijiy investitsiyalarni respublikamiz milliy iqtisodiyotida to'tgan urni beqiyosdir. Yqorida xorijiy investitsiyalarni davr o'zgarishiga bog'lab uch davrga bo'lib, o'rganish natijasida shunday xulosaga keldikki, xorijiy investitsiyalarni kirib kelishining jadallashishi uchinchi bosqichga to'g'ri kelgan. Bu davr Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrdan to hozirgi kunga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan. Bu ijobiy ko'rsatkich Respublikamizning mustaqilligini asosiy xususiyati deb bilamiz.

Ikkinchidan, Respublikada xorijiy investitsiyali korxonalarining ro'yxatdan o'tgani 3600 ta bo'lsa, viloyatda 64 tani tashkil etmoqda . Ulush jihatdan 0,9 foiz holos. Bizning fikrimizcha, bunga ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud, albatta.

Ob'ektiv to'siqlarning mavjudligi, mahalliy hokimiyat organlarining qanchalik ko'p xatti-harakat qilmasinlar, baribir xorijiy investorlarni jalb qilishni jadallashtirish imkoniyati cheklanganligini namoyon qilmoqda. Shunga muvofiq Namangan viloyatida investitsion muhitni qanday tashkil etilganligi haqida iqtisodiy o'rganish, tahlil va talqin ishlarini olib borishni maqsadga muvofiq deb topdik.

2.5-jadval

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar

№	Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2013 y. yakuni,	2014 yil yakuni	2014 yilning 2013 yilga nisbatan o'zgarishi %
1	Ro'yxatdan o'tgan xorijiy investitsiya asosida tashkil etilgan korxonalar soni	birlik	63,0	64,0	101,6
2	shu jumladan:				
3	Faoliyat yuritayotganlar	birlik	58,0	60,0	103,4
4	Vaqtincha ishlamayotganlar	birlik	5,0	4,0	80,0
5	Tashkil etilayotganlar	birlik	2,0	2,0	100,0
6	Butunlay faoliyatini to'xtatganlar	birlik	5,0	5,0	100,0

Manba: Namangan viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari

2.5-jadval ma'lumotlariga ko'ra Namangan viloyatida 2014 yilda ro'yxatdan o'tgan xorijiy investitsiya asosida tashkil etilgan korxonalar soni 2013 yilga nisbatan 1,6 foiz o'sib 64 taga yetdi. faoliyat ko'satayotgan qo'shma korxonalar soni 3,4 foizga oshib 60tani tashkil etdi. Vaqtincha ishlayotganlar korxonalar soni 4 ta bo'ldi.

Viloyatda 2014 yil yakuni bilan 2900 dan ziyod faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan hisobot davrida 1965,0 mlrd.so'mlik (112,5%) sanoat mahsulotlari, 1205,0 mlrd. so'm (113,7%) xalq iste'moli mollari ishlab chiqarilib, prognoz (112,5% va 112,0%) parametrlari to'liq ta'minlandi.

Viloyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida eng avvalo yuqori salmoqqa ega engil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik va qolgan sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish dasturlari bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu davrda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari 776,9 ming so'm va aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 476,5 ming so'mni tashkil etib, 2013 yilning shu davriga nisbatan mos holatda 248,4 ming so'm va 140,7 ming so'mga ko'p yoki 118,3 foiz va 116,6 foizga o'sishiga erishildi.

2.6-jadval

Namangan viloyatidagi qo'shma korxonalarining ishlab chiqarish haqida ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2013 yilga o'zgarishi % nisbatan
1	Ishlab chiqarish xajmi va xizmat ko'rsatish	mln. so'm	375600,0	403246,0	107,4
2	Mintaqada jami ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ulushi	%	48,8	49,5	x
3.	Eksport xajmi	Ming \$	45367,2	48792,6	107,6
4.	Mintaka jami eksportiga nisbatan ulushi	%	41,5	43,3	x
5.	Import xajmi	Ming \$	74652,0	75862,4	101,6

Manba: Namangan viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari

Namangan viloyatidagi qo'shma korxonalarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xajmi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 7,4 foizga oshib 403 mlrd. 246 mln. so'mni tashkil etib, mintaqada jami ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ulushi 49,5 foizga teng bo'ldi. Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot eksport xajmi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 7,6 foiz o'sib 48 mln. 792 ming 600 AQSh dollarini tashkil etib, mintaka jami eksportiga nisbatan ulushi 43,3 foizga etdi.

Qo'shma korxonalarining importdagi hajmi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 1,6 foizga o'sib 75 mln. 862 ming 400 AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida viloyatda mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish lozimligini keltirib chiqaradi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 fevraldagi "2014-2016 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish to'g'risida"gi PQ-2120-sonli qarorini viloyatda ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimining 2014 yil 18 fevraldagi 50-sonli qarori qabul qilinib, dasturga asosan 2014 yilda jami 10 ta xududiy tasarrufdagi korxonalarining 18 ta loyihasi bo'yicha 35,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilish belgilab olingan.

Dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasida yanvar-dekabr oylari davomida 47,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi hamda 52,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ichki bozorlarga sotildi. Shu davrda iqtisod qilingan valyuta miqdori 9,5 mln.dollarni tashkil etib, 34 ta nafar yangi o'rinlari yaratildi.

Keltirilgan yutuqlarmiz bilan bir qatorda viloyatdagi yirik korxonalardan 7 tasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oldingi yilning shu davriga nisbatan 47,2 mlrd.so'mga pasaygan. Ushbu korxonalar qatorida bir qator qo'shma korxonalarini ham ko'rish mumkin. Jumladan, Namangan shahridagi "Nestle O'zbekiston" QKda 22,3 mlrd so'mga (81,4%), "Pop Fen" QKda 1,2 mlrd. so'mga (92,6%) Uychi tumanidagi "Mega tekstil" QKda 1,7 mlrd so'mga (72,1%) mahsulot ishlab chiqarish hajmlari o'tgan yilga nisbatan kamaygan.

2.3. Marketing faoliyati orqali qo'shma korxonalar tashkil etishni rivojlantirish

Hozirgi kunda, mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarida minglab xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil etilib, ular ishlab chiqargan tovarlari, ko'rsatayotgan xizmatlari va bajarayotgan ishlari bilan respublikaning jahon integratsiyasiga qo'shilishida o'z xissalarini qo'shib kelmoqda. Ularning unumli va samarali faoliyat ko'rsatishining asosi - bu bozor munosabatlari qonunlariga rioya qilishlaridadir. Chunki, jahon bozoriga o'z mahsulotlarimizni olib chiqib, ma'lum miqdorda iqtisodiy samara opishi uchun bozordagi raqobatni yengishimizga to'g'ri keladi. Aks holda, foyda o'rniga katta miqdorda zarar ko'rishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, jahon bozorida iste'molchilar va haridorlarga mos tovarlarni ishlab chiqarishimiz uchun marketing faoliyatini qonun va qoidalariga rioya qilib, undan unumli foydalana bilish hozirgi bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Marketing iqtisodiy kategoriyasi bizning leksikamizda yaqinda paydo bo'lishiga qaramay butun milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqdarida samarali foydalanib kelinmoqda. Ko'plab ishbilarmonlar va tadbirkorlar marketing faoliyati va tadqiqotlaridan uz tadbirkorlik hamda tijorat faoliyatida foydalanib yuqori iqtisodiy samaralarga erishmoqda. Marketingni iqtisodiy mohiyati va mazmuni haqida juda ko'plab fikrlar aytilgan, albatta. Ammo umumiy fikrdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu asosan bozorni o'rganishni bildiradi.

Bizning fikrimizcha, marketing eng muvofiq narxlardagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, haridorga ijobiy, ruxiy ta'sir etish bilan yuqori darajada iqtisodiy samara olishni rejalashtirishdir. Shu bois, aytishimiz mumkinki, marketing faoliyatining yaxshi va to'g'ri tashkil etilganligi alohida mamlakatda tadbirkorlar, investorlar uchun qulay investitsiya muhitining mavjudligidan dalolat beradi.

Haqiqatda, bizning respublikamizda xorijiy investorlar uchun investitsion muhit qisman ta'miqlanganligini guvohi bo'lyapmiz, albatta. Ammo mazkur investitsion muhit jahon integratsiyasiga keskin kirib borishimizga hamon tupik sharoit yaratib bermayapti. Ushbu holat haqida Prezident I.Karimov quyidagi

fikrlarni bildirgan: «Shu narsani qayta-qayta takrorlashga to'g'ri kelmoqda: O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimi bilan integratsiyalashuviga erishmasdan turib, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirmasdan va mustahkamlamasdan turib, eng muximi, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etmasdan turib, ya'ni men aytmoqchimanki, bank va moliya sohalarida, real iqtisodiyotda, birinchi galda yetakchi tarmoqlarda chet el kapitalining ishtirokini kengaytirmasdan turib, iqtisodiyotimizning barqaror tarakkiyotini ta'minlash kiyin»¹.

Bizning fikrimizcha, Prezident, I. Karimov bildirgan fikrlarini to'liq va o'z vaqtida amalga oshirish uchun investitsion muhitning dastlab nazariy masalalarini, so'ngra amaliyotdagi real holatni imkon qadar tahlil qilamiz.

Hozirgi kunda respublikamiz milliy iqtisodiyotida bevosita investitsiyalarning asosiy qismi mahsulot eksportiga muljallangan sohalarga, yoqilgi energetika majmuasiga, neft, kimyo, oltin qazib olish, paxtani qayta ishlash sanoatiga, qoplanish muddatlari qisqa bo'lgan va katta mablag' talab qilmaydigan yuqori samaradorli investitsion loyihalarga yo'naltirilmoqda. Xorijiy investitsiyalarning ana shunday tarmoqlarga taqsimlanishi tarixiy omillar va ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkib topgan tuzilmasi bilan bog'liq. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari tuzilmasi takomillashib borayotganligi yangi ishlab chiqarishlardagi bevosita xorijiy investitsiyalarning o'sish tendensiyasini kuchaytirilmoqda. Jumladan, avtomobilsozlik, elektronika sanoati rivojlandi. Qurilish industriyasi, aloqa korxonalarida va qishloq xo'jaligida yangi texnika-texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Har yili mamlakatda qabul qilinadigan investitsion dasturni amalga oshirish orqali tarmoqlarda va hududlarda tuzilmaviy qayta qurish vazifasini hal etish, xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Dasturning asosiy xususiyati ayrim tarmoqlarda va mintaqalarda xorijiy investorlar uchun real amal qiluvchi imtiyozlar tizimini yaratish, yuridik shaxslar yuqori turuvchi idoralar

¹ Каримов И. Озод ва обод Ватан Эркин ва фаровон хаёт пировард максадимиз. Т.: «Ўзбекистон», 2000, 53-бет.

va mahalliy xokimiyatlar o'rtasida mulk va vakolatni aniq chegaralab qo'yish, barqaror iqtisodiy tashqi savdo qonunchiligini jumladan, erkin iqtisodiy hudud va konsessiyalar bo'yicha me'yoriy bazani yaratish, soliq tuzilmasini soddalashtirishdan iborat.

Bugungi kungacha mamlakat hukumati tomonidan milliy valyuta qadrini mustahkamlash uning erkin ayirboshlanish qobiliyatini oshirit maqsadida qator xujjatlar qabul qilindi, pul-kredit siyosati kuchaytirildi, inflyasiya sur'atlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qonuniy xujjatlar bilan tartibga solindi. Biroq bu bilan milliy pul birligi so'mning erkin ayirboshlanishiga to'liq erishildi deb bo'lmaydi, albatta.

Milliy valyutani muomalaga kiritish uning barqarorligi va mustahkamligi bilan bog'liq ko'plab masalalarni hal qilishni talab etadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Bugungi eng muhim vazifa valyutamizni baquvvat, dunyoda obro'li valyutaga aylantirishdir. U yuksak qiymatga va katta kuchga ega bo'lishi lozim. So'mning barqarorligini ta'minlash va qadrini oshirish umummilliy vazifa. Respublikamizdagi barcha fuqarolarning farovonligi ana shu vazifaning hal etilishiga bog'liq».

Bu muammoni ijobiy hal qilish bo'yicha respublika hukumati tomonidan qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda, ya'ni respublikada valyuta siyosatini erkinlashtirish siyosati amalga oshirilmoqda. Bunda valyuta kurslarini unifikatsiyalash jarayonini chuqurlashtirish, birjadan tashqari valyuta bozorlarini kengaytirish, valyuta ayirboshlash operatsiyalari miqyosini ko'paytirish ishlari o'tkazilmoqda. Qilinayotgan ishlardan asosiy maqsad esa, joriy operatsiyalar bo'yicha to'liq konvertatsiyaga tezroq o'tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun:

- birinchidan, milliy valyutaning to'la konvertatsiyalashuviga o'tish jarayoni ijobiy kechishini ta'minlash va kafolatlash maqsadida valyuta resurslarini izlab topish uchun barcha halqaro moliyaviy tuzilmalar bilan amaliy hamkorlik qilish;

- ikkinchidan valyuta ayirboshlash operatsiyalarida qatnashuvchi banklar va ayirboshlash shaxobchalari sonini keskin ko'paytirish shu tariqa ayirboshlash

shaxobchalari orqali valyuta sotish xajmini oshirish uchun zarur bo'lgan raqobatlantiruvchi omillarni vujudga keltirish;

- uchinchidan, ayirboshlash shaxobchalarida valyuta ayirboshlash operatsiyalari xajmining o'sishig'i nisbatga olgan holda, valyuta sotish shartlari va talablarini erkinlashtirish, ya'ni valyuta sotishdagi cheklashlarni bosqichma-bosqich kamaytirib borish talab etiladi.

Mamlakatda reklama - informatsiya ta'minotdagi taqchilikda mahsulot bozori potensial raqobatchilarning narx va ishlab chiqarish siyosati, xom ashyo va materiallarga bo'lgan imkoniyatlar, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ekologik holatni baholash kuyicha ma'lumotlarning etishmasligi kuzatilmoqda:

- mamlakatda qulay investitsion faoliyatni yaratish bo'yicha amal qilib kelayotgan qonuniy-huquqiy bazani, xorij sarmoyasi uchun yaratilgan imtiyoz va qulayliklarni targ'ibot-tashviqot qilishning sust kechayotganligi;

- joylardagi huquqni muxofaza qilish muassasalari tomonidan respublikada investitsion faoliyatni tartibga solish va himoya qilish qonuniy bazasining to'g'ri amalga oshirilishiga erishish.

Iqtisodiyotning har bir tarmogida qonun ustivorligiga to'la rioya etish talab etiladi, jumladan xorijiy investorlar faoliyatini tartibga solish huquqiy bazasiga rioya qilish, ularning huquqlarini poymol qilmaslik va himoya qilish o'zaro kelishuvlar va shartlarning bajarilishiga olib keladi.

Xorijiy investorlar mablag'lari bu kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga beriladigan beg'araz insonparvarlik yordami emas, har bir tadbirkor loyihaning moliyaviy rejasini to'zishda xorijiy investor o'rnida o'zini xis qilish va shunga yarasha mablag'lar harakati prognozini to'g'ri hisoblab chiqish zarur. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak xorijiy investor ham mahalliy hamkorga o'xshagan holda ma'lum vaqtdan so'ng foyda olish maqsadida mablag'larni ma'lum bir sohaga joylashtiradi. Agar u investitsiya rentabelligiga erishmasa, xorijiy investorning loyihaga bo'lgan qiziqishi susayadi bu holat boshqa investorlarning kichik biznes

va xususiy tadbirkorlik sohasiga bo'lgan fikri munosabatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shu o'rinda respublikamizda o'z ish faoliyatini oshirmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarning o'z majburiyatlarining bajarmaslik holatlari ham uchramoqda. Ularni xorijiy investorlarning o'z zimmasiga olgan majburiyatlarining bajarmaslik hollarida, jumladan qo'shma korxonalar ustav fondiga o'z vaqtida badallarni kiritmaslik, badal kiritish va asbob-uskuna etkazib berish bo'yicha kafolatlarni o'z vaqtida taqdim etmasligi, asbob-uskunani etkazib berish va montaj qilishda kamchilik va xatolarga yo'l qo'yishlarida ko'rish mumkin. Albatta, respublikamizda xorijiy investorlar ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirishda muammolar, hal qilinmagan masalalar mavjud. Investitsion loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishning barcha fazalarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqishi xorijiy investorlar va ularning investitsiyalarini iqtisodiyotga jalb qilish va ular bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish istikbollariga bog'liq. Respublikada qulay investitsion muhitni shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish bundan buyon ham mamlakatda uzoq muddatga muljallangan strategik amalga oshirishga zamin bo'ladi.

Biz yuqorida qayd etib o'tgan materiallar investitsion muhitning nazariy kirralarini ochib beruvchi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, investitsion muhit qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, investitsion resurslarning qo'nim topishi va rivojlanishi shunchalik yaxshi kechadi.

Qulay investitsion muhitni tashkil etish alohida bir davlatda, mintaqada, tarmoqda va alohida korxonalar miqyosida ham amalga oshirish mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki agar alohida davlatning butun hududida investitsion muhit yaxshi bo'lsa, butun davlatda mahalliy va xorijiy investitsion resurslar qo'nim topib tez rivoj topishi mumkin. Ammo davlatning joylashgan hududi ko'lamining katta yoki kichikligiga bog'liq holda butun davlatda yaxlit qulay investitsion muhitni yaratish imkoni bo'lmasligi ham mumkin. SHunday hollarda alohida mintaqalar yoki alohida tarmoqlarda investitsion muhitni yaxshi yo'lga qo'yish lozim. Biroq alohida mamlakat uchun ustuvor tarmoqlar ham mavjud

bo'ladiki, ular uchun davlatning o'zi qulay investitsion muhitni maxsus yaratib beradi.

Umuman olganda, respublika tarmoqlar iqtisodiyotining barcha ustuvor tarmoqlari xorijiy investitsiyalarning kirib kelishidagi ulushini qo'llab-quvvatlash bo'ladi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga 10 foizni kirib kelishini juda yaxshi investitsion muhit tashkil etilgan deyishimizga asos bor. Ammo, bizni to'liq qoniqtirmaydigan tarmoq - bu agrosanoat tarmog'idir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida mehnatga layoqatli aholini qariyb yarmi faoliyat ko'rsatadi, umumiy aholining 64 foizi qishloqlarda yashaydi. Shu jumladan, mamlakatga valyuta tushumining 50 foizidan ortiqrog'i paxta, pilla va qorako'lchilik mahsulotlarini eksport qilishni hisobiga shakllanmoqda.

Agrosanoatni mana shunday ustuvor tomonlarini hisobga oladigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha past deb hisoblaymiz.

Yuqorida investitsion muhitni Namangan viloyatida qanday tashkil etilganligi, xorijiy investitsiyali korxonalarining soni haqida to'xtalgan edik.

Hozirgi kunda qo'shma korxonada bozor kon'yunkturasini o'rganib, mavsumiy va talab yo'nalishlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tmish maqsadga muvafiqdir:

Respublikada xorijiy investitsiyalarni muxim qo'nim topishi uchun qulay investitsion muhitni nisbatan yaratilgan desak bo'ladi. Chunki respublikada «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida», «Konsessiya to'g'risida», «Chet el investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilinib milliy iqtisodiyotga muvaffakiyatli joriy etilgan;

Respublikamiz tarmoqlari bo'yicha xorijiy investitsiyalarni taqsimlanishi nisbatan yaxshi yo'lga kuyilgan. Ammo respublika iqtisodiy va sotsial jihatining yarmini ta'minlab turgan agrosanoatda xorijiy investitsiyalarni kirib kelishini kuchaytirish uchun marketing masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yib, marketing tadqiqotlarini jadal suratlar bilan olib borishni taqazo etadi;

- Viloyat masshtabida investitsion muhit respublikamizning boshqa viloyatlariga nisbatan yaxshi deb bo'lmaydi. Shunga muvofiq viloyatda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanmoqchi bo'lgan xorijlik investorlarga moliyaviy va bank kreditlari bo'yicha maxsus imtiyozlarni berish zarur. Bugungi kunda faqat moliyaviy imtiyozlar orqali viloyatda investitsion muhitni keskin yaxshilash mumkin;

- Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda ro'yxatdan o'tgan qo'shma korxonalarining 10 foizi faoliyat ko'rsatmasdan turibdi. Bunday bo'lishiga olib kelgan sabablarni yaxlit o'rganishni ta'minlovchi tadbirlarni amalga oshirish lozim va mahalliy xokimiyat xodimlarining faoliyatini oshirish zarur.

Ushbu bobga xulosa qilish orqali xorijiy investitsiyalar va O'zbekiston Respublikasining investitsiyalar orqali jahon integratsiyasiga kirishida ularning ahamiyatini Prezidentimiz so'zi bilan yakunlamoqchimiz. U kishi shunday yozadi: «Shu narsani qayta-qayta takrorlashga to'g'ri kelmoqda: O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimi bilan integratsiyaga erishmasdan turib, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirmasdan va mustahkamlamasdan turib, eng muximi, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etmasdan turib, ya'ni men aytmoqchimanki, bank va moliya sohalarida, real iqtisodiyotda, birinchi galda etakchi tarmoqlarda chet el kapitalining ishtirokini kengaytirmasdan turib, iqtisodiyotimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash kiyin»¹.

Namangan viloyati ham mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining jahon integratsiyasiga kirishida munosib xissa qo'shayapti, albatta. Ammo xorijiy investitsiyalarni jalb qilib yangi xo'jalik sub'ektlarini tashkil qilish borasida Respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlaridan ham ortda qolmoqda. Bu o'z navbatida, viloyatdagi ijtimoiy infratuzilmaning ham keskin rivojlanishiga nisbatan salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Istiqbolda, bu nuqsonlarni tezda bartaraf etish davr talabidir. Mavjud muammolarni bartaraf etish borasidagi mulohazalarimizni malakaviy ishaning keyingi bobida aks ettirishni maqsadga muvofiq deb topdik.


¹ Каримов И. Ислохотлар ва инвестициялар буйича идоралараро мувофиқлаштирувчи кенгаш йигилишидан маъруза.. «Халк сузи» 2000 йил 2 феврал.

3-BOB. O'ZBEKISTONDA QO'SHMA KORXONALAR TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI VA ULAR TANLAGAN STRATEGIYASIGA ERISHISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Qo'shma korxonalar tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bozor infrastrukturasi yaratishda chet el sarmoyadorlarini jalb etish juda muhim ahamiyatga egadir. Barcha davlatlardagi investitsion muhit, chet el sarmoyadorlari uchun eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Chunki faqat mana shu omil sarmoya tavakkali qanchalik yuqori ekanligiga javob beradi. Uning tuzilishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga chet el kapitalini, zamonaviy texnologiya, boshqaruv malakasini jalb etishga sharoit yaratib beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan chet el sarmoyadorlari uchun ma'qul sharoit yaratib berish yuzasidan siyosat olib borilmoqda. Buning asosida quyidagi 3.1-rasmda keltirilgan tamoyillar yotadi.



Manba: Muallif ishlanmasi

3.1-rasm. Chet el sarmoyadorlari uchun ma'qul sharoit yaratib berish tamoyillari

O'zbekiston investitsiya siyosatida quyidagi soha va ishlab chiqarishning turlari aniqlanganki, bo'larning barchasi mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va davlatimkz eksport salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu sohalarga sarmoyalarni kiritish muximdir:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash;
- mineral - xom eshyo resurslarini qayta ishlash va ularni ekologik toza ishlab chiqarishni tashkil etish, jumladan neft va gazni ham;
- zamonaviy axborot va telekommunikatsiya sistemalarini tashkil etish, kosmik tadqiqotlarni olib borish;
- dori-darmonlar ishlab chiqarish, tibbiyot asbob-uskunalarini ishlab chiqish;
- sayohlik sanoatini rivojlantirish va qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqarish;
- aloqa xizmatini rivojlantirish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan uskunalarini ishlab chiqarish.

Xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi mana shu strategik yo'nalishlarni hisobga olgan O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan harakterlanadi;

O'zbekiston Markaziy bankining qayta moliyalashtirish tariflarini, inflyasiya darajasini yanada pasaytirishga yo'naltirilgan samarali makroiqtisodiy siyosatni yurgizish;

- Xususiylashtirish va Davlat tasarufidan chiqarish jarayonini tezlashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishini jadallashtirish, portfelli sarmoyalarni jalb qilish hajmini o'shish;

- Ishlab chiqilgan qonuniy aktlarni samarali kullanishini ta'minlovchi mexanizmlarni yaratish va avvalambor, O'zbekiston bozorida biznes olib borayotgan sarmoyadorga «sarmoyaviy xavfsizligi»ni ta'minlash;


- Sarmoyalar xajmini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni yaratish va qo'llash;

- Ishlab chiqarish sohasida sarmoyalar samaradorligini oshirish va kapital samaradorligini oshirish orqali kapital qo'yilmalarni foydaligini oshirish.

- Ham mahalliy, ham chet el sarmoyadorlari uchun yagona mukobil «Milliy sarmoyalash rejimi»ni b(skichma-bosqichma yaratish.

Bizning fikrimizcha, chet ellik sarmoyador bilan birgalikda korxonalar qurishda investitsiya siyosatini olib borish uchun asosiy e'tiborni quyidagi muammolarni yechishga qaratish lozim.

Sarmoyalarning kirib kelishining eng zaruriy omili bu - sarmoyadorning boshqa davlatlardagiga nisbatan bu erda yuqori foyda olish mumkinligidir. Shuning uchun ham shunday kuchli raqobatda preferensial rejimni tashkil qilishga to'g'ri keladi, bu degani bir davlatning ikkinchi davlatga bojxona to'lovlari, imtiyozli kreditlash, tashqi savdo operatsiyalarini sug'urtalash, valyuta rejimi, moliyaviy yordam miqyosida o'zaro shartnomalar tuzish orqali, uchinchi davlatga yoymasdan turib, imtiyozli sharoitlarni yaratib berish. Umuman olganda huquqiy - me'yoriy munosabatlarda quyidagi yondashuvlarga e'tibor berish diqqatga sazovordir.



Manba: Muallif ishlanmasi

3.2-rasm. Huquqiy - me'yoriy munosabatlarga yondashuvlar

Qo'shma korxonalarining tarmoqlardagi faoliyatiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, bularning 37,2% sanoatga yo'naltirilgan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida 37,9% tashkil etgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, san'at, sayyohlik, fan va ilmiy xizmat, elektron hisoblash

xizmatiga yo'naltirilgan qo'shma korxonalarining salmog'i hammasi birgalikda 4,2%ni tashkil etadi.

3.4-jadval

Sanoat tarmoqlari ichida qo'shma korxonalarini salmogi

T/r	Yo'nalishlar	Sanoatdagi ulushi %
1	Oziq-ovqat sanoatida	8,8
2	Yengil sanoatda	7,8
3	Mashinasozlikda	6,5
Ishlab chiqarilgan mahsulotning xajmi bo'yicha		
4	Mashinasozlikda	31,4
5	Oziq-ovqat sanoatida	17,2
6	Rangli metallurgiyada	7,9

Qo'shma korxonalarining hududlar bo'yicha joylashganini ko'rib chiqqanimizda, 4-jadvaldan ko'rinib turganidek, faoliyat ko'rsatib turgan 'qo'shma korxonalarining 75,2% ni Toshkent shaxrida, atiga 2,2%i Namangan viloyatida joylashgan. Bu o'z vaqtida ishlab chiqarish kuchlarini iqtisodiyotga ratsional holatda joylashtirishga tusqinlik qiladi.

3.5-Jadval.

2014 yilda O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar soni, ular ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlar xajmi.

Viloyatlar	Ishlab turgan korxonalar soni	Mahsulot, ishlar, xizmatlar xajmi	
		Mln.sum.hisobida	2001 ga nistaban, foiz hisobida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha	1951	176637,6	143,0
Korakalpogiston Respublikasi	5	267,3	32,2
Andijon	51	52725,9	143,4
Buxoro	39	600,9	134,1
Jizzax	29	462,6	2,9 m
Kashqadaryo	21	955,4	2,1 m
Navoi	24	15594,5	118,7
Namangan	43	2387,8	144,9
Samarkand	85	6995,8	2,5 m
Surxandaryo	28	851,6	2,6 m
Sirdaryo	13	309,4	1,7 m
Toshkent	107	10107,0	1,6 m
Fargona	49	4457,4	1,7 m
Xorazm	23	2173,4	96,4
Toshkent sh.	1434	78748,6	139,3

Manba: Uzbekiston Respublikasi Statistika davlat kumitasi ma'lumotlari

Hozirgi vaqtda viloyatlardagi qo'shma korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining umumiy ko'rsatkichlari asosan katta korxonalar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Masalan, «UzDEUavto» qo'shma korxonasini Asaka shaxrida tashkil etilishi Andijon viloyatidagi qo'shma korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotining xajmini o'sishiga olib keldi.

Bundan tashqari Navoiy viloyatida «Zarafshon-Nyumont», «Zarispark», «Agama» qo'shma korxonalarining tashkil etilishi, qo'shma korxonalar ishlab chiqargan mahsulotning o'sishiga olib keldi.

Quyidagi 5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining 2014 yildagi eksport xajmining 31,6 % i Navoiy viloyatiga, 22,9% i Andijon viloyatiga, 16,0 % i Toshkent shahriga, 14,4% i Toshkent viloyatiga, atigi 15,1% i qolgan viloyatlar xissasiga to'g'ri kelgan.

Bu tengsizlikni samarali hal etish uchun chet el sarmoyasini kiritishga ma'qul bo'lgan soha, hududlarni konkretlashtirish uchun juda keng miqyosda ishlar olib borishga to'g'ri keladi. Bu ishlarni amalga oshirishda nafaqat siyosiy, iqtisodiy tomonlardan kelib chiqqan holda, balki sarmoyadorlarga mumkin qadar ko'proq imtiyozli sharoitlarni yaratib berish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqa davlatlarda qo'yilggn kapital foydasi asosida faoliyat ko'rsatayotgan imtiyozli sharoitlar natijasida, ma'lum miqdorda marja hosil bo'ladi. Buning ancha qismini umumiy asoslarda qo'yiladigan boshqa sarmoyali tushumlarga kafolat bo'ladigan maxsus fondlarga yo'naltirish mumkin bo'ladi. Bunaqangi konsorsiumlik jamiyatiga o'xshash jamiyatlarni konkurs yoki auksionlar asosida tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu konkursarga har xil shakldagi xususiy tadbirkorlarni keng ko'lamda jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida kapitalning bir davlatdan ikkinchi davlatga kirib kelishi, qimmatbaxo qogozlarning, chet el sarmoyalarining umumiy xajmida o'sishiga olib keladi. Shuning uchun ham qimmatbaxo qogozlar bozorini rivojlanishini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishdagi davlat

siyosati bir qancha ketma-ket bosqichlarga mo'ljallanishi kerak. Avvalambor obligatsiya, o'rta muddatli veksellar chiqarishni taxminlash, Davlatni xususiy va shaxsiy korxonalar aksiyalarini sotib olishda qatnashishi, bu qimmatli qog'ozlarni likvidligini yanada oshiradi. Chet el portfellik sarmoyalarni jalb qilishdagi samarali mexanizm hisoblangan innovatsiya fondlari, sarmoya kompaniyalari, o'zaro pul bozori fondlarini tashkil etish muhimdir. Hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishida alohida rol respublikada qimmatli qog'ozlar emissiyasining asosiy bazasi hisoblangan, Davlat mulkini bosh taqsimlovchisi bo'lgan Davlat mulki Qo'mitasi zimmasiga yuklangan.

Ko'pgina davlatlarda chet el sarmoyalarini jalb etishda davlat mulkidan asosiy omil sifatida samarali foydalanilmoqda. Lekin uni bu yo'nalishga kullash mumkin bo'lmaydi, agarda bu uchun sharoitlar bo'lmasa. Buning uchun Davlat kuzgalmas mulki ishlab chiqarishda va maishiy xizmat sohasini kengaytirishga xizmat qilishi, ijaraga berilishi va kredit oladigan vaqtda kafolat sifatida ishlatilishi kerak. Hozirgi sharoitda zarur bo'lgan komponentlarni yukligi qo'zg'almas mulkni olishga g'arb sarmoyadorlari juda extiyotkorlik bilan yondashishadi. Bizning sharoitda bu masala yuzasidan tajribani yo'qligi, chet el tajribasini o'rganishga undaydi.

Respublikamizga chet el sarmoyalarini jalb etishda yana bir yordamchi mexanizm sifatida sayyohlikni tashkil etish uchun davlat obligatsiyalarini chiqarish va alohida iste'mol talabiga ega bo'lgan mahsulotni sotib olishni ko'rsatish mumkin. Obligatsiyalar ma'lum vaqtda nominal qiymati bo'yicha (qoplash asosida chiqariladi yoki diskont bilan va bu bilan birgalikda milliy ishlab chiqarish mahsulotlarini sotib olishda va safar uchun kuponlar ham chiqariladi. Respublikaga sayyohlarni kelishiga qiziqtirish, qo'shimcha kapitallarni sarmoyalash bilan bog'liqdir.

Mana shunday kuchli raqobat sharoitida kapitalni jalb qilish uchun ko'pgina mamlakatlar, jumladan: Ispaniya, Gretsiya, Irlandiya, Turkiya davlatlari uz iqtisodiyotlarida davlat marketing siyosatini yuritadilar. Mana shu yerda O'zbekiston iqtisodiy salohiyatining marketing siyosatini amalga oshirishni

yaratish va qo'llash, dunyoga respublikamizning mana shu sohani boshqarishda yaxshi tomonga yoyish, O'zbekiston iqtisodiyoti imkoniyatlarini, o'zbek mahsulotlarini dunyo bozorlarida raqobatbardosh ekanligini reklama qilishdan iborat. Bundan tashqari hozirning o'zidayoq quyidagi muammolarni hal etish kerak bo'ladi:

- milliy korxonalar va millatlararo korporatsiyalar birgalikdagi faoliyati;
- dunyo kapital bozorida milliy qimmatli qog'ozlar bozorining teng huquqlik asosida integratsiyani ta'lashlash;
- chet el tadbirkorlik sarmoyasini jalb etishda ichki va tashqi axborot infrastrukturasi to'zish.

Bunday muammolarni hal qilish uchun chet davlatlarda shunga mos keladigan vakolatxonalarni ochish, axborot tizimlarini rivojlantirish va ularni halqaro axborot sistemasiga ulash, halqaro bank sistemasi bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish kerak.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, biznes dunyosida yangidan tashkil etilgan korxonalar hammasi ham hayotga yaroqli bo'lavermaydi. Bularga ham ob'ektiv, ham sub'ektiv sabablar mavjuddir. Lekin bularni tabiiy jarayon ekanligi tushunish muhimdir. Eng muhimi - korxonalar faoliyati uchun normal sharoit yaratib berish kerak. Bu o'z vaqtida kredit, xom ashyo, valyuta va boshqa resurslardan foydalanishga ruxsat etilganidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, hamma uchun bir xil raqobat muhitini yaratib berish kerak, ana shunda kim kuchli ekanligi ma'lum bo'ladi.

Albatta, ro'yxatdan o'tkazish protsedurasiga boshqacha yondashmoq kerak, uni maksimal darajada qisqartirish, bor kuchni esa yangidan tashkil etiladigan korxonalar faoliyati uchun sharoit yaratishga karatish kerak. Hozirgi paytda yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni yagona tartibini tashkil etish zarurligi vujudga keldi. Bu avvalambor shu bilan aniqlanadiki, kachonki biz sarmoya uchun ma'kul muhit yaratish to'g'risida gapirar ekanmiz, xech qachon mahalliy ya'ni o'zimizning sarmoyadorlarimizni unutmasligimiz kerak. Albatta bunday yagona yonlashuv ro'yxatdan o'tishdan boshlab amalga oshirilishi kerak.

Yangidan tuzilayotgan korxonani ro'yxatdan o'tkazishga, chet el kapitali qatnashdimi, yo'qmi bundan qat'iy nazar yuqorida ko'rsatganidek yagona va maksimal darajada qisqartilgan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda ish yuritayotgan bank tizimi yanada takomillashtirishga muhtojdir. Real sarmoyalarni rivojlantirishga ko'mak beradigan xizmatlar to'rini ko'paytirish kerak. Bundan tashqari chet el kapitalini kirib kelishini ragbatlantirishga extiyoj vujudga keldi. Bu, birinchidan, O'zbekistonda ilgor bank texnologiyalarini kullashga imkon yaratadi, ikkinchidan, chet el sarmoyadorlarini bizning bozorga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi, uchinchidan, bu banklar moliyaviy resurslarini O'zbekistonga sarmoya qilishishi uchun foydalanishga imkon yaratadi. Bu siyosat juda chuqur ko'rib chiqilgan choralar asosida olib borilishi kerak.

3.2. Qo'shma korxonalar faoliyati samaradorligi tahlili.

Qo'shma korxonalarini tashkil etishda, avvalo O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun konkret loyihani amalga oshirishda har tomonlama chuqur tahlil qilib, uning yaxshi va yomon tomonlarini o'rganib chiqish kerak; qo'shma korxonalar ish yuritishdan olinadigan ohirgi samarasini hisoblab chiqish kerak. Shu bilan bir katorda, bu korxonani nafaqat faoliyatining natijalarini, balki qo'shma korxonaning rivojlanish strategiyasini, bizning davlatimiz extiyojlariga maksimal darajada javob berishini ham hisobga olishi kerak. Bu masalalarning hammasini qo'shma korxonalar texnik iqtisodiy asoslarini tayyorlash paytida ko'rib chiqish kerak.

Chet el sarmoyalari bilan tuziladigan qo'shma korxonalar, avvalo ma'lum bir iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun yo'naltiriladi. Shu bilan birga har bir aniq qo'shma korxonaga alohida bir vazifani yechish uchun tanlanadi. Loyihalashtirilgan qo'shma korxonaga yoki ish yuritib turgan qo'shma korxonaning bu vazifalarni yechishdagi talabni qondirish darajasi, uning samaradorligi oxirgi ko'rinishida aniqlanadi. Qo'shma korxonaga samaradorligini tahlil qilishni, ham bu loyihani tayyorlash vaqtida, ham uning faoliyati jarayonida olib borish zarur.

Biroq, birinchi bosqichda ko'proq qo'shma korxonaning samarali loyihasini aniqlash to'g'risidagi masala emas, balki chet ellik sheriklar bilan shu sharoitga mos keladigan hamkorlikni optimal shaklini tanlash vazifasi turadi. Shunday shakllardan biri sifatida qo'shma korxonalarni tashkil etish mumkin. Shuning uchun, avvalambor shu narsaga e'tibor berish kerakki, bu holatda boshqa variantlarga nisbatan, ya'ni masalan, kerak bo'ladigan mahsulotni import qilish uchun bir martalik kelishuvlar yoki shu mahsulotni ishlab chiqish uchun litsenziya yoki chet ellik sherik bilan kooperatsiya aloqalari urnatishga karaganda, xakikatan ham qo'shma korxonani tuzish makbulligiga ishonch hosil qilish kerak. Har xil variantlar orqali hamkorlik qilish samaradorligini takkoshlashni oldindan hisoblash juda muhimdir. Chunki faqatgina shu holatda tanlovning to'g'riligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Agarda, chet ellik sheriklar bilan qo'shma korxonani misolidagi hamkorlik qilish ma'kul bo'lsa, qo'shma korxonani o'zini tashkil etish samaradorligini aniqlash zarurdir. Bunda shu narsani e'tiborga olish kerakki, tanlangan sherik bilan qo'shma korxonalarni tashkil etishda, har xil variantlarni hisoblagandek, qo'shma korxonani tashkil etishda qanday sheriklarni tanlashga ham e'tibor berish zarur. Qo'shma korxonani tashkil etishda uning faoliyati samaradorligini hisoblashga, O'zbekiston Respublikasi umumiy iqtisodiy manfaatlarini nazardan kelib chiqqan holda aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Umumiy ko'rinishdagi iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda, bu shaklning tashqi iqtisodiy operatsiyalarini amalga oshirish va qiymat shaklida olinadigan samara o'rtasidagi harajatlar farqi orqali aniqlanadi. SHunday qilib, eng samarali variant eng yaxshi natijani berish kerak va shu bilan birga bu shaklni halqaro mehnat taqsimotiga qatnashish foydaliligini aniqlash zarur. Qo'shma korxonani tashkil qilish va ish yuritishdan olinadigan to'g'ridan-to'g'ri samara bu shaklning halqaro iqtisodiy aloqalaridan olingan kushimcha sof foydasi orqali aniqlanadi. Biroq, zamonaviy va arzonroq mahsulotni ishlab chiqarishdan olinadigan to'g'ridan-to'g'ri va aniq-ravshan ko'rinishdagi iqtisodiy samarani oldin ichki bozorda bo'lmagan yangi turdagi mahsulotlarni olib kelishni, qo'shmakorxonalar

tashkil etishning yagona ijobiy natijasi deb bo'lmaydi. Bir xil natijalar unchalik samara bermasada, lekin ular muxim ahamiyatga egadir. Gap ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar mahsuloti ustida bormoqda. Bu mahsulotlarni mamlakat ichkarisida qo'llanilishini hisobga olgan holda zamonaviy texnikalarni kullash natijasida olinadigan iqtisodiy samarani hisoblab chiqish mumkin.

Shu bilan birga import urnini bosishini unutmash kerak, bundan tashqari aniq son jihatdan tahlil qilishga kiyin yon beradigan ko'rgazmali samara vujudga keladi. Bu narsa ichki bozorda qo'shma korxonalarni O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi shartnomaviy aloqalar va xo'jalik hisoboti rivojlanishi sharoitida, jahon bozorining qattiq kriteriyasiga mos keluvchi mahsulotlarini paydo bo'lishida namoyon bo'ladi va uz navbatida butun mamlakat miqyosida ishlab chiqarishni texnika jihatdan rivojlanishga ob'ektiv yordam beradi. Bundan tashqari ekologiya va ijtimoiy (qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish madaniyati, ichki bozorda mahsulot assortimentini kengayishi) samaralarni hisobdan chiqarmaslik zarur.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi hududida qo'shma korxonalar tashkil etish va ish yuritish faoliyati iqtisodiy samarasini son jihatdan aniqlashda kullanmaga mos ravishda, faqatgina to'g'ridan-to'g'ri harajatlar va samara hisobga olinadi. Bu qo'llanma qo'shma korxonada chet ellik va O'zbekistonlik sheriklarining qatnashish samaradorligini aniq baholashga imkon beradi. Qo'shma korxonalar samaradorligini aniqlash vaqt omillarini hisoblash majburiylikini talab qiladi. Bu degani hisob-kitoblarda aniq ma'lumotlar, xakikiy harajatlar va bashorat qilinadigan miqdorlar qo'llaniladi.

Bashorat qilinadigan miqdorlarga: masalan qo'shma korxonalariga kerak bo'ladigan xom ashyo, yoqilgi, yarim fabrikatlarning baxosi, yillar bo'yicha ishlab chiqarish xajmi, ichki bozorda va tashqi bozorda sotuvlarning farki va boshqalar kiradi. Bu miqdorlarning un yildan keyin ahamiyati qanday bo'lishni aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu holda hisob-kitoblarning natijasi taxminiy bo'ladi va hamma vaqt ham ijobiy ishni haqiqiy tomondan ko'rsatmaydi. Boshqa bashoratlar singari, ular konkret loyihani amalga oshirish samarasini taxminiy

baholaydilar. Bunday tekshiruvlarga qancha vaqt ko'p ketsa, shuncha aniqlik natijasidan chetga chiqilishi mumkin. Shunga karamasdan bunakangi hisob kitoblar juda foydali va ular qo'shma korxonalar tashkil etish vaqtida to'g'ri vaqtni tanlashga imkon beradi.


Vaqt omilini hisobga olish zarurligi qo'shma korxonalarini tashkil etish va ularning ish yuritishdagi samaradorligini aniqlashda, muhim ahamiyatga egadir. Agarda import operatsiyalari samaradorligini aniqlash bilan taqqoslasak, qo'shma korxonalar oldi-sotdilarga qaraganda uzoq hamkorlikni ko'zda tutadi. Aniq hisob-kitoblarni olib borishda birinchidan, qo'shma korxonaga kuyiladigan kapitalning turli vaqtiligi, bu degani harajatlar bir tomondan va ikkinchi tomondan uning ish faoliyatidan olinadigan samara hamda, ikkinchidan, qo'shma korxonalar qatnashchilari harajatlarining ko'p marotabaligi va tug'ri vaqtligi bir tomondan, ikkinchi tomondan iqtisodiy samara olish davrining uzoqligiga e'tibor berish kerak:

Bunday holatda faqat ko'rsatilgan momentlarni hisobga oladigan va har xil vaqt ichida harajatlar va olingan samaralarning puldagi ifodasi urtasidagi xakikiy farkni hisobga oladigan dinamik tahlil metodikasini qo'llash mumkin. Qo'shma tadbirkorlikni tahlil qilishda shu narsaga e'tibor berish kerakki, qilingan sarmoyalarni va ulardan olinadigan xakikiy daromadni vaqt bo'yicha to'g'ri kelmasligi juda katta aspektidir.

Qo'shma korxonalarini tashkil etishni amalga oshirish avvalo, kurilish va ishlab chiqarish quvvatlarini ta'minlashga ketadigan kapital harajatlardan boshlanadi. Bunday harajatlarni ham O'zbekistonliklar ham chet elliklar ko'taradi. Faqat ma'lum bir muddatdan keyin qo'shma korxonalar mahsulot bera boshlaydi. Biroq yana ikki holatni jumladan, qo'shma korxonalar ishlab chiqarish jarayonining dastlabki vaqtlarida hamma vaqt ham rentabellik bo'la olmaydi, chunki mahsulot sotilishning boshlanishi bu iqtisodiy samara olindi degan gap emas, ikkinchi holatda ko'pgina qo'shma korxonalar kredit olib faoliyat yuritadilar. Shuning uchun ham dastlabki ishlab chiqarish jarayonida olingan foydalar foizlarni to'lashga ketishini hisobga olishga to'g'ri keladi.

Turli yillar davomida qilingan harajat va yil davomida olingan iqtisodiy samaraning umumiy summasini oddiy mexanik tarzda takkoslaganda aniq bir natijani berishi kiyin. Bundan tashqari nominal miqdorlarga suyanmaslik kerak, balki turli yillardagi turli baholarda ekanini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish kerak. Bu maqsadga erishishi uchun diskontlash metodini kullash kerak. Diskontlash -ma'lumotlarni yagona bazaga keltirishdir. Hisoblar, keltirilgan harajatlar formulasiga asosan amalga oshiriladi. Shunday qilib, qo'shma korxonalar tashkil etish va faoliyatini samaradorligini baholash okibatda amalga oshirilgan va oshirilishi mumkin bo'lgan xakikiy harajatlarga va samara beradigan kushimcha harajatlarga takkoslashga takaladi.

Qo'shma korxonalarini tashkil qilishda qabul qilinadigan karorlarning eng muxim kriteriyasi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mamlakat miqyosida iqtisodiyotda maksimal yutuklarga erishishdir. Optimal variantni tanlash halq xo'jaligini integral samarasidan kelib chiqadi. Shu bilan birga bu variant qo'shma korxonalariga o'zbek va chet ellik sheriklarning qatnashishi samarasini amalga oshirishni kondirishi zarur. Shunday qilib, qo'shma korxonalar tashkil etish va ish yuritish faoliyatining samaradorligini aniqlashdagi vazifalarni echish quyidagi 3.3-rasmda keltirilgan bosqichlarga bo'linadi.



Manba: Muallif ishlanmasi

3.6-rasm. Qo'shma korxonalar tashkil etish va ish yuritish faoliyatining samaradorligini aniqlashdagi vazifalarni yechish bosqichlari

Bunda shuni aytib o'tish kerakki, qo'shma korxonalar tashkil etish va faoliyatining samaradorligini hisoblashdagi hamma ishlar kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ko'rib chiqishdan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida hamkorlikda qo'shma korxonalar to'zishdagi oxirgi qaror, halq xo'jaligi samaradorligi bilan qo'shma korxonada O'zbekistonlik va chet ellik sheriklarning qatnashish samaradorligi mos kelganda qo'llaniladi.

3.3. Qo'shma korxonalar tanlagan strategiyasiga erishishining asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy isloxlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarning keng ravnak topishi insonlar hayotida, turmush tarzida, ma'naviy va amaliy ko'nikmalarida namoyon bo'lyapti. Respublikamiz fuqarolari rivojlangan Evropa davlatlari, AQSH, Yaponiya kabi davlatlarning boy amaliy tajribasi xususida etarli axborotga ega bo'lib bormoqdalar.

Biznesning dastlabki vujudga kelish sharoitida uni bir kator ko'lamda yoki jabhalarda talkin etilishi, uni sistemali tarzda o'rganish, izlanish ob'ekti, hamda amaliy faoliyat yo'nalishi sifatida tartibga solish zarur.

Biznes tushunchasi keng maxnodagi tushuncha bo'lib - kasb, mashgullik, ish, tadbirkorlik, shartnoma, ishbilarmonlik doirasi yoki hayoti, kompaniya va aksariyat hollarda daromad undirish manbai sifatida qaraladi.

Shu bilan birga uning kelgusidagi istikbolini belgilash, kuyilgan maqsad sari intilish, doimil uzgarishlar sharoitiga moslanish, tavakkalchilik qilish kabi bir kator nazariy va amaliy tomonlarni ko'rib chiqish maqsadga mvofiqdir.

Strategiya - tub ma'noda mujassamlashgan rejalashtirish siyosatidir, xo'jalik va harbiy jihatdan esa harakat yo'nalishi ma'nosini anglatadi.

Amerikalik yetuk iqtisodchi I.Ansoffning fikricha, strategiya – o'z mohiyati jihatidan tashkilotning uz faoliyatida karor qabul etish jarayonida kullashi uchun mavjud bo'lgan qoidalar majmuiga aytiladi.

Amaliy faoliyatda va amaliy boshqarish tajribasida strategiya mazmunan va mantikan qanday namoyon bo'ladi. Ushbu strategiya xususiyatlarini I.Ansoff quyidagicha tizimda tartibga solish mumkin deb

1. Strategiya aniq-konkret harakatlarda namoyon bo'lmaydi. U odatda, firmaning mavkeini va o'sishini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlarni belgilash bilan cheklanadi.

2. Ifodalangan yalpi strategiya - loyihalar strategiyasini tavakkalchilik asosida ishlab chiqish va foydalanish imkonini yaratadi. Ya'ni strategiyaning urni - muammolarni hal etishda imkoniyatlarni baholash, hal etish jarayonida unichg yo'nalishiga to'g'ri kelmaydigan boshqa yo'nalishlarni uz vaqtida bartaraf etishdan iborat.

3. Agar real voqealar va hodisalar rivojlanishish tashkilotni ma'kul bo'lmagan holatlarga boshlasa, qabul qilingan strategiyaga bo'lgan zarurat yukoladi.

4. Strategiyani ifodalash jarayonida konkret loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini dastavval to'la kura bilishning imkoni yukligi.

5. Tanlayotgan loyihalarni strategiyalar sifatida qurilishi, ularni orientir tarzda bo'lishini anglatish mumkin. Lekin ular urtasidagi tafovut mavjud.

Orientir - bu maqsad turidirki, unga firma erishish uchun harakat qiladi. Orientir - karor qabul qilishning yuqori darajasi. Orientirni tanlashda esa bir kator strategiyalar va ularning uzgarishi nazarda tutiladi. Strategiya esa - maqsadga erishish vositasidir.

Strategiya va orientirlar o'zaro bir-birlarini tuldiruvchan hisoblanadilarki, boshqarishning turli buginlarida va muddatlarda ular yuzaga kelishi mumkin. Masalan, samaradorlik ulchovi bo'lmish - bozordagi ulush ko'rsatkichi bir firma uchun orientir, boshqa firma uchun esa tanlangan strategiya bo'lishi mumkin.


Hozirgi sharoitda yuz berayotgan keskin uzgarishlar tadbirkorlikning kay jihatlari va intilishlari strategiyasi tanlashga va amalga oshirishga ko'prok ta'sir etkazmoqda degan savol vujudga keladi.

Birinchiidan, korxonaning ichki imkoniyatlarini talab, texnologiya va mahsulotning hayotiy davrlarini "uzaytirish" bilan bog'liq bo'lgan o'rinish, ya'ni korxonaning ichki salohiyati hisoblangan texnologiya va mahsulotning hayotiy davrlarini yangi bozorlar, yangi iste'molchilarni topishga.

Ikkinchiidan, korxonaning rivojlanishi uchun geografik yoki milliy joylashuvning etakchi ahamiyatga ega bo'lmay kolishi va transmilliy korporatsiya tarzida rivojlanishda yangi va keng imkoniyatlarning mavjudligi.

Uchinchiidan, mahalliy sanoat bozor ehtiyojlarini kondirishdan halqaro bozor ehtiyojlarini kondirish uchun harajatlarning samaradorligi va istikboliy porlokligi.

Shunday ekan, korxonaning ichki salohiyatining asosiy elementi bo'lgan texnologiyani qay tarzda talab va mahsulotning hayotiy davrlarni uzaytirishdagi ta'sirini oshirish mumkinligini ko'rib chiqishimiz kerak. Bu uning hayotiy davrlar o'rtasidagi bog'liqligi bilan aniqlanadi, bu hayotiy davrlar quyidagicha:



Manba: Muallif Ishlanmasi

3.7-rasm. Mahsulotning hayotiy davrlari

Biznes strategiyasi - korxonaning tegishli davr mobaynida kechayotgan fan texnika tarakkiyoti zaminida belgilanadi, aniqlashtiriladi va samarali yo'nalishlari bilan boyitiladi. Keling, endi O'zbekistonda sut mahsulotlari ishlab chiqarishga

yo'naltirilgan "Nestle" qo'shma korxonasi qatnashchilarining, bu biznesda tanlagan strategiyasi to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bundan oldingi bo'limlardp ko'rsatib o'tganimizdek, bu korxonani tashkil etishdan asosiy maqsad, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda, uning eksport salohiyatini oshirishda o'zining xissasini qo'shib kelayotgan Namangan viloyatini valyutaga bo'lgan extiyojini qondirishdir. Buning o'ziga yarasha sabablari bor; hammaga ma'lumki hozirgi davrda mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Buni amalga oshirish juda katta ma'suliyatni yangi texnika va asbob-uskunalar talab qiladi. Mana shu yangi texnika va asbob-uskunalarni chetdan olib kelish uchun katta miqdordagi valyuta mablag'lari talab qilinadi. O'zbekistonda qo'shma korxonalarni tashkil etilishidan asosiy maqsadi ham yangi texnika va asbob-uskunalarni sotib olish uchun valyutaga ega bo'lishdir.

"Nestle" qo'shma korxonasi O'zbekiston bozorini o'rganish natijasida o'z o'rnini tezda aniqlab, mahalliy bozorga joylashishga harakat qildi. Ushbu firma dunyoga mashhur bo'lgan va mahsuloti jahon talablariga darajasiga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlarini O'zbekiston bozorida reklama qilishdan boshladi. Ko'p yillar davomida qo'shma korxonalar barcha iste'molchilarning o'sib borayotgan talablariga mos keluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan o'zining raqobatga qodirligini ta'minlab kelmoqda.

Qo'shma korxonalar o'z ravnaqini va asosiy raqobat bozorini iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan yoki rivojlanishi mumkin bo'lgan davlatlardan topib, o'z strategik mavqeini aniqlashga kirishdi. O'zbekistonni tanlashi bejiz emas edi, chunki bu yerda mahsulot ishlab chiqarish uchun eng foydali bo'lgan:

1. Arzon ishchi kuchi.
2. Arzon xom ashyo mavjuddir.

Shuning uchun kompaniya tanlagan strategiyaga erishish uchun quyidagi yo'nalishlarga ega bo'lish kerak:

1. Mahsulot assortimenti strategiyasi bo'yicha:
 - yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish;

- Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini va tashqi ko'rinishini qattiq nazorat ostiga olish.

2. Ishlab chiqarish strategiyasi bo'yicha:

- Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan mahsulotlarga qattiq talab (standart) o'rnatish.

- Foydaning bir qismini texnologik yangiliklar ixtiro etishga yo'naltirish;

- Dizayn sohasida ish olib boradigan yaxshi mutaxassislarni ishga jalb etish.

3. Mahsulotlarni sotish strategiyasi bo'yicha:

- "Nestle" korxonasi uchun ishlab chiqarish borasida imidjini mustahkamlash;

- Dunyo bozorida mustahkam o'rin egallash, tashqi mamlakatlarda savdo uylarini tashkil etish;

- Haridorlar sonini ko'paytirish uchun qulay baholarni va sharoitlarni qo'llash;

- Shu mahsulot turi bo'yicha halqaro yarmarka va ko'rgazmalarda qatnashishi;

- Ommaviy axborot vositalari orqali reklamani rivojlantirish.

4. Personal tanlash va tayyorlash strategiyasi bo'yicha:

- Adolatli ish haqi ta'riflarini tashkil etish.

- xizmat pogonasida ko'tarishni taklif etish.

- Xaqiqiy, ko'ngli pok bo'lgan ishchilarni ishga yollash;

- Mutaxassilar tayyorlash uchun ularni o'quv yurtlarida tahsil oldirish.

5. Ijtimoiy soha strategiyasi bo'yicha:

- Korxonada xodimlarini yaxshi xordiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

- Ishlab chiqarishda yuz beradigan falokatlardan xodimlarni sug'urtalash.

- Xodimlarga va ularning oila a'zolariga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish.

- Foyda hisobidan korxonaning madaniy-maishiy, sport sohasini rivojlantirish va boshqalar.

Shunday qilib korxonaning tanlagan strategiyasiga erishishining asosiy yo'nalishlari bilan bir qatorda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim.

1. Uz mahsulotlarini sotishda bozorlarni segmentlarga bo'lish.
2. Korxonaga mahsulotiga bo'lgan talabni maqsadli yo'naltirilgan holda o'rganish.
3. Iste'mol bozorida mavjud bo'lgan raqobatchilarni o'rganish.
4. Mahsulotlarni sotish uchun muljallangan savdo uylari va maxsus do'konlarni tashkil etish.
5. Sotishga mo'ljallangan mahsulotlarni sug'urtalash.
6. Korxonaga mahsulotlarini tashqi yarmarka va ko'rgazmalarda reklama qilish va boshqalar.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunga kelib respublikamizda iqtisodiyotga sarmoya yetkizish va qo'shma korxonalar tashkil etishni jadallashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'tgan 2014 yilning o'zida 42 trillion 599 mlrd. 630 mln.79 ming so'mdan ortiq mablag' investitsiya qilindi. Hozirgi kunga qadar tashkil etilgan qo'shma korxonalar soni 3200 tadan oshdi va bu qo'shma korxonalarni chuqur o'rganish va tahlil qilishni hayot takozo etmoqda.

Bizning bu mavzuga qo'l urishimizdan maqsad, ushbu qo'shma korxonalarni tashkil etish va ularning ish yuritishining samaradorligini, korxonalarining maqsadiga, strategiyasiga erishish jarayonlarida vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun vazifa va yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Shunday qilib, qo'shma korxonalar hozirgi sharoitda, iqtisodiy munosabatlar muhitida hamkorlikning eng rivojlangan shakli sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu korxonalar shunday shakllardan biriki, bunda halqaro hamkorlik qatnashchilari boshqa shakldagi korxonalarda bir xil sharoitda, amalga oshirolmagan iqtisodiy manfaatlarini hal etish mumkin bo'ladi.

Qo'shma korxonalarining maqsadi: mahalliy sherik uchun yuqori texnologiyalarni iqtisodiyotga olib kirish, ishlab chiqarishni dunyo standartlariga javob beradigan holda rivojlantirish, yuqori boshqaruv ilmini egallash va foyda olishdir. Chet ellik sherik uchun asosiy maqsad -yuqori foydaga erishishdir. Qo'shma korxonalarni tashkil etish va ish faoliyatini olib borishida, ko'zlagan maqsadga, tanlagan strategiyaga erishish jarayonida bir nechta muammolar vujudga keladi. Bizning fikrimizcha asosiy e'tiborini mana shu muammolarni echishga qaratish lozim.

1. Sarmoyalarning kirib kelishini eng zaruriy omili bu - sarmoyadorning boshqa davlatlardagiga nisbatan bu erda yuqori foyda olish mumkinligidir. Shuning uchun ham shunday kuchli raqobatda preferensial rejimini tashkil qilishga to'g'ri keladi.

2. Mahalliy korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar to'zishda shunga e'tiborni karatish lozimki, ko'pgina faoliyat ko'rsatib turgan chet el korxonalari

ham ma'naviy, ham jismonan eskirgan, kam rentabelli, ishlab chiqarish darajasi juda pastdir. Bu korxonalarni iqtisodiyotga olib kirilishi kam samarali bo'ladi.

3. Qo'shma korxonalarni tarmoqlar va hududlar bo'yicha yo'naltirilishi bir xilda emas. Respublika miqyosida tashkil etilgan qo'shma korxonalarining 37,9 %i savdo va umumiy ovkatlanish korxonalarida, 37,2%i sanoatda va bor yo'g'i 4,2%i qishloq xo'jaligi, sog'likni saqlash, maorif, madaniyat, san'at, sayyohlik, fan va ilmiy xizmat, elektron xizmatiga yo'naltirilgan. Qo'shma korxonalarni hududlar bo'yicha yo'naltirilganini qarab chiqsak, 2,2%i Namangan viloyatida joylashgan. Bu o'z vaqtida ishlab chiqarish kuchlarini iqtisodiyotga ratsional holatda joylashtirishga to'sqinlik qiladi.

4. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, hozirgi iqtisodiyotda, chet el sarmoyasining umumiy xajmida kapitalning bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tishida qimmatli qog'ozlarning roli o'sadi.

5. Xalqaro mashtabdagi muhim sohalarda (paxta tozalash, oziq-ovqat, resurslarni qayta ishlash) konsorsiumlar tashkil etish va ularga mahsulotni chetga chiqarish uchun kvotalar berish maqsadga muvofiq bo'lardi.

6. Qo'shma korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayoniga boshqacha yondoshmoq kerak, uni maksimal darajada qisqartirish, bor kuchni esa yangidan tashkil etiladigan korxonalarni faoliyati uchun sharoit yaratishga qaratish kerak.

7. Respublikamizga xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ular bilan sheriklik asosida korxonalar tashkil etishda va ularning texnologiyalaridan unumli foydalanib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun valyuta konvertatsiyasi muammosini hal etish kerak.

8. Bugungi kunda ish yuritayotgan bank sistemasi yanada takomillashtirishga muhtojdir. Real sarmoyalarni rivojlantirishga kumak beradigan xizmatlar to'rini ko'paytirish kerak.

Qo'shma korxonalar o'z maqsadlari va strategiyalarini amalga oshirishlarida vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim.

1. O'z mahsulotlarini sotishda tashqi bozorlarni segmentlarga bo'lish.
2. Korxonaga mahsulotiga bo'lgan talabni maqsadli yo'naltirilgan holda o'rganish.
3. Iste'mol bozorida mavjud bo'lgan raqobatchilarni o'rganish.
4. Mahsulotlarni sotish uchun muljallangan savdo uylari va maxsus do'konlarni tashkil etish.
5. Sotishga muljallangan mahsulotlarni sugurtalash.
6. Korxonaga mahsulotlarini tashqi yarmarka va kurgazmalarda reklama qilish.

Bundan tashqari tanlangan strategiyaga erishish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish kerak.

1. Mahsulot assortimenti strategiyasi bo'yicha:
 - yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish;
 - Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini va tashqi ko'rinishini qattiq nazorat ostiga olish.
2. Ishlab chiqarish strategiyasi bo'yicha:
 - Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan mahsulotlarga qattiq talab (standart) o'rnatish.
 - Foydaning bir qismini texnologik yangiliklar ixtiro etishga yo'naltirish;
 - Dizayn sohasida ish olib boradigan yaxshi mutaxassislarni ishga jalb etish.
3. Mahsulotlarni sotish strategiyasi bo'yicha:
 - "Nestle" korxonasining ishlab chiqarish borasida imidjini mustahkamlash;
 - Dunyo bozorida mustahkam o'rin egallash, tashqi mamlakatlarda savdo uylarini tashkil etish;
 - Haridorlar sonini ko'paytirish uchun qulay baholarni va sharoitlarni qo'llash;
 - Shu mahsulot turi bo'yicha halqaro yarmarka va kurgazmalarda qatnashishi;

- Ommaviy axborot vositalari orqali reklamani rivojlantirish.

4. Personal tanlash va tayyorlash strategiyasi bo'yicha:

- Adolatli ish haqi ta'riflarini tashkil etish.
- xizmat pogonasida ko'tarishni taklif etish.
- Xaqiqiy, ko'ngli pok bo'lgan ishchilarni ishga yollash;
- Mutaxassilar tayyorlash uchun ularni o'quv yurtlarida tahsil oldirish.

5. Ijtimoiy soha strategiyasi bo'yicha:

- Korxonada xodimlarini yaxshi xordiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish;
- Ishlab chiqarishda yuz beradigan falokatlardan xodimlarni sug'urtalash.
- Xodimlarga va ularning oila a'zolariga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish.
- Foyda hisobidan korxonaning madaniy-maishiy, sport sohasini rivojlantirish va boshqalar.

Shunday qilib korxonaning tanlagan strategiyasiga erishishining asosiy yo'nalishlari bilan bir qatorda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim.

1. Uz mahsulotlarini sotishda bozorlarni segmentlarga bo'lish.
2. Korxonada mahsulotiga bo'lgan talabni maqsadli yo'naltirilgan holda o'rganish.
3. Iste'mol bozorida mavjud bo'lgan raqobatchilarni o'rganish.
4. Mahsulotlarni sotish uchun muljallangan savdo uylari va maxsus do'konlarni tashkil etish.
5. Sotishga mo'ljallangan mahsulotlarni sug'urtalash.
6. Korxonada mahsulotlarini tashqi yarmarka va ko'rgazmalarda reklama qilish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqorida ko'rsatib o'tgan muammo va takliflar u yoki bu xujjatlarda o'z aksini topsa, nafaqat qo'shma korxonalar ish faoliyatining samaradorligini oshirishga, balki Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda qisman bo'lsa ham o'z xissasini qoshgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining Mexnat Kodeksi. T.: «Sharq», 1998 (yangi tahrir). O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.–T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. –B. 344.
3. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. № 3 - T.: Adolat, 2004. – 7-9 b.
4. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni 1997 yil 30 avgust.
5. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qonuni. // Soliqlar va bojxona. gazetasi. 1999, №4.–B. 1-2.
6. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2000.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

7. «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. Xalq so'zi, 2005 yil, 16 iyun.
8. 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-1442. 15.12.2010 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 4 aprelda Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 aprel.

10. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” Davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 07.02.2011 y. № PQ-1474.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbiarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4354-sonli Farmoni.

12. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami – 9 son – 2010- 9 mart.

13. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor mahsadir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar.

14. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi 2010 yil 29 yanvar. B-8.

15. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so‘zi. № 11. 17.01.2015

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

16. Islom Karimov. Bosh mahsadir–keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish. T. “O‘zbekiston”, 2013. – 23 b.

17. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2012. – 36 b.
18. Karimov I.A. «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutq. // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.
19. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.
20. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza), "Xalq so'zi", 2010 yil 12 noyabr (№ 220).
21. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.

IV. O'quv qo'llanmalar va darsliklar

22. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov Iqtisodiyot nazariyasi.T:2007 y. B.-302.
23. Xaydarov M.T, Ashurova D.S. Bo'stonov M «Iqtisodiy o'sish» – T.: TDIU, 2007 – 141 bet.
24. Gregori Menkyu. "Makroekonomika". M.: MGU. 2003 g., 327 str.
25. Saks D.J., Larren F. Makroekonomika Global yondashuv M., 2001. – 599 .
26. Makkonell K.R. Bryu S.L. "Ekonomiks": printsipo', problemo' i politika. Tallin 2001.
27. Gradov A.P. Natsionalnaya ekonomika. Kurs lektsiy M. 2001.
28. Ishmuhamedov A.E., Ahmedov D.Q. va boshqalar "Makroiqtisodiyot" O'quv qo'llanma, T.:TDIU,2004 y.

29. Gregori Menkyu. “Makroekonomika”. M.:MGU.2003 g.
30. Pod.red K.A. Xubieva “Ekonomicheskiy rost i faktor razvitiya sovremennoy Rossii”, M. TETsS. 2004 g, 726 str.
31. G.A. Kutorshevskiy “Ekonomika” osnovo’ teorii. Uchebnoe posobie, izd. “Ekonomika” 2004 g. 382 str.
32. Nomirov Z.N. O’zbekistonda iqtisodiy o’sish omillari va ulardan unumli foydalanish yo’llari. BMI. T. 2004 y.
33. Effektivno’y ekonomicheskiy rost: Teoriya i praktika. Uchebnoe posobie dlya studentov ekonomicheskix vuzov Pod. red. T.V. Chechelovoy, M: Ekzamen, 2003 g. 320 str.

VI. Internet saytlari

32. www.gov.uz–O’zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
33. www.mfer.uz–O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
34. www.UzA.Uz–O’zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
35. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
36. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
37. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali
38. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti
39. www.InternetNews.com – yangiliklar serveri